

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA OR`TA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo`lyozma huquqida

UDK

SHOMURODOVA SUNBULA G`OLIBOVNA

**O`ZBEK XALQ QO`SHIQLARIDA LIBOSLAR MAGIYASI BILAN
BOG`LIQ QARASHLARNING BADIY IFODASI**

5A220101 – Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyotshunosligi)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari
doktori, professor O`rayeva Darmon
Saidaxmedovna

BUXORO – 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	2-9
I bob. Liboslar magiyasi bilan bog`liq xalq qarashlarining kelib chiqish ildizlari.....	10-27
I.1. Kiyim-kechaklar bilan bog`liq magik-mifologik qarashlarning genezisi.....	10-19
I.2. Arxaik marosimlarda libos kiydirish udumlari.....	19-26
Bob yuzasidan xulosalar.....	26-27
II bob. Kiyim kiydirish bilan bog`liq an`anaviy urf-odatlar folklori.....	28-46
II.1. Bolaga kiyim kiydirish udumi qo`shiqlari.....	28-32
II.2. Nikoh urf-odatlari bilan bog`liq kiyimlarning to`y qo`shiqlaridagi talqini.....	32-38
II.3. Aza marosimi qo`shiqlarida motam kiyimlarining tasviri va talqini.....	38-45
Bob yuzasidan xulosalar.....	45-46
III bob. Xalq qo`shiqlarida kiyim-kechak obrazlarining turlari va badiiy talqini.....	47-78
III.1. Bosh kiyimlarining xalq qo`shiqlarida obrazlantirilishi.....	47-61
III.2. Tan kiyimlarining qo`shiqlardagi badiiy talqini.....	62-71
III.3. Qo`shiqlarda oyoq kiyimlari obrazi.....	71-77
Bob yuzasidan xulosalar.....	77-78
Umumiy xulosalar.....	79-81
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	82-87

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olish maqsadga muvofiq bo'lmoqda. Shunisi borki, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.¹ Darhaqiqat, bugungi davr har bir xalq tarixini, milliy qadriyatlarini, madaniy merosini chuqur va atroflicha o'rganishni shu asosda – Vatanimiz erishgan istiqlolni, uning g'oyalarini yanada mustahkamlashni zaruriy vazifa sifatida ko'ndalang qo'ymoqda. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “Urf-odat, qadriyatlarimiz, meroslarimiz mohiyatini yoshlar ongiga singdirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning beg'uborligini saqlagan holda yoshlarga yetkazish, ular ma'naviyati poklanishining muhim omillaridan biridir”.² Shunday ekan, xalq ijtimoiy-badiiy tafakkurining hosilalaridan biri sifatida avloddan-avlodga o'tib, insonlarga ijtimoiy-estetik ta'sir ko'rsatib kelayotgan xalq og'zaki ijodi sirlarini yanada chuqurroq o'rganishga va bu ishga yosh avlodni ham jalb etishga to'g'ri keladi.

Xalq og'zaki ijodining turli janrlarida turli darajada o'z badiiy ifodasini topgan xalq tarixi, uning turmush tarzi, madaniyati tadqiqi folklorshunoslikning hamisha dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Ma'lumki, istiqloldan so'nggi yillarda, qisqa muddat ichida xalq og'zaki ijodining har bir janriga alohida e'tibor berilib, chuqur ilmiy asosda o'rganilishi yo'lga qo'yildi. Xususan, istiqlol baxsh etgan ijodiy erkinlikdan foydalanib, folklor asarlarini xalqning qadimiy urf-odatlarini, milliy turmush tarzi, mifologik va diniy tasavvur-tushunchalari asosida etnofolkloristik hamda tarixiy-mifologik aspektda tekshirish yo'lga qo'yildi.

¹ Karimov I.A.. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Mana'viyat, 2008. – B.30

².Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.:O'zbekiston, 1997. – B.245.

Chunki xalq og`zaki ijodi durdonalari eng qadimgi davrlardan an`ana sifatida kelayotgan qadriyatlar, urf-odatlar va millat ruhiyatiga xos tuyg`ularni o`zida mujassamlashtirishi bilan e`tiborga loyiqdir. Ularda xalqning madaniyati, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari o`z badiiy ifodasini topganligi bilan qimmatlidir.

Xalq og`zaki badiiy an`analari tizimida poetik tafakkur taraqqiyotining ilk qatlamlariga tegishli o`ta qadimiy syujetlar, epik motivlar, mifologik inonch-e`tiqodlar asosida yaratilgan obrazlar silsilasi alohida o`rin tutadi. Mifologik obrazlarning hamda ular ta`sirida o`sib chiqqan turli ramziy timsollarning tarixiy asoslarini o`rganishga to`g`ri keladi. Bu esa hozirgi folklorshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O`zbek xalq og`zaki ijodida keyingi yillarda mifologik tasavvurlar va magik ramziy obrazlarni o`rganishga bir qadar qiziqish kuchaygani sezilarli samara bermoqda. Ayniqsa, ularning qo`shiqlar tarkibiga singish asoslarini o`rganishga, an`anaviylik, turg`unlik kasb etish sabablarini oydinlashtirishga qiziqish kuchaygandan- kuchaymoqda.

Xalqimizning ma`naviy bisotida e`zozlangan holda saqlanib kelayotgan nomoddiy merosimizning uzviy qismi bo`lgan xalq qo`shiqlari bag`ridagi poetik tafakkur jilolarini hamda ezgu insoniy g`oyalarni istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qilish, o`sib kelayotgan avlodni uning nafosatga boy g`oyalaridan bahramand qilib, ularni el-yurt xizmatiga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga safarbar etishda asosiy vosita sifatida foydalanish har jihatdan zarurdir. Shu vazifadan kelib chiqqan holda xalq qo`shiqlarini, ayniqsa, ularda liboslar magiyasi bilan bog`liq xalq qarashlarining badiiy ifodasini alohida tadqiq qilish ilmiy izlanishimizning dolzarbligini belgilaydi. Chunki bu barkamol yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalab, voyaga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning o`rganilish darajasi. O`zbek folklorshunosligida liboslar magiyasi bilan bog`liq qarashlarning badiiy ifodasi hali maxsus tadqiq qilinmagan va bu mavzu alohida tadqiqot predmeti sifatida belgilanmagan. Bu haqda faqatgina qo`shiqshunos va marosimshunos olimlar M.Alaviya, B.Sarimsoqov,

A.Musaqulov, Sh.Turdimov, D.O`raeva kabi folklorshunoslarning qo`shiq va marosimlar borasidagi tadqiqotlarida ayrim fikrlarga duch kelish mumkin. Lekin hodisaning umumiy tabiati, kelib chiqish asoslari, folklor asarlaridagi epik va lirik talqiniga xos xususiyatlar alohida muammo sifatida maxsus o`rganilmagan. Shuni e`tiborga olib, mazkur magistrlik dissertatsiyasida o`zbek xalq qo`shiqlarida liboslar magiyasi bilan bog`liq qarashlarning badiiy ifodasiga xos xususiyatlarni alohida tadqiq qilish, ularning ramziy talqin etilishiga, poetik belgilariga e`tibor qaratish ko`zda tutildi.

M.Alaviyaning “O`zbek xalq qo`shiqlari”, “O`zbek xalq marosim qo`shiqlari”, B.Sarimsoqovning “O`zbek marosim folklori”, A.Musaqulovning “O`zbek xalq lirikasi”, D.O`rayevaning “O`zbek motam marosimi folklori” monografiyalarida, SH.Turdimovning “O`zbek xalq lirik qo`shiqlarida poetik ramzlar” mavzusidagi nomzodlik ishida, M.Asomiddinovaning “Kiyim-kechak nomlari izohli lug`ati”da, S.Ro`zimboyev hamda D.O`rayevaning o`zbek xalq lirik qo`shiqlarida parallelizmni hosil qiluvchi qiyosiy manbalar xususidagi ilmiy maqolalarida tadqiqot mavzuumizga daxldor ayrim fikr-mulohazalarning ilgari surilganiga guvoh bo`lish mumkin.

S.O`tanovaning “Alisher Navoiy g`azaliyotida rang simvolikasi” mazuidagi nomzodlik dissertatsiyasida rang ramziyliklari, rang va libos; rang va gul mutanosibligi, badiiyati atroflicha o`rganilgan.³

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, o`zbek folklorshunosligida xalq qo`shiqlarida liboslar magiyasi bilan bog`liq qarashlarning badiiy ifodasiga xos xususiyatlar, uning kelib chiqish ildizlari, ramziy-timsoliy mohiyati maxsus tadqiq etilmagan. Ayniqsa, bunda obrazlantirilayotgan bosh, tana, oyoq kiyimlarining turlarini, har biriga xos ramziy-timsoliy ma`nolarni aniqlash dolzarb va muhim muammolardan biridir. Qolaversa, bu o`rinda taniqli folklorshunos A.Musaqulovning: “Liboslar magiyasi va folklor munosabatlari maxsus bir tadqiqotni talab etadi”, – degan fikrini eslab o`tish joiz.

³ Ўтанова С.Х. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикasi: Филол. фанлари номзоди...дисс афтореф. – Т., 2007. – Б. 26.

Shularni hisobga olib, tadqiqot ishi mavzusi o`zbek xalq qo`shiqlarida liboslar magiyasi bilan bog`liq qarashlarning badiiy ifodasiga qaratildi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi. Tadqiqotda o`zbek xalq qo`shiqlarida uchraydigan liboslar magiyasi bilan bog`liq obrazlarning turlarini, genezisini, badiiy talqin etilishi bilan bog`liq xususiyatlarni maxsus tadqiq qilish bosh maqsad qilib belgilandi.

Magistrlik dissertatsiyasining vazifalari. Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- o`zbek folklorshunosligida kiyim-kechaklar bilan bog`liq magik qarashlarning o`rganilish tarixi bilan tanishgan holda liboslar magiyasi bilan bog`liq mifologik qarashlarning kelib chiqish ildizlarini yoritish;

- arxaik marosimlarda libos kiydirish udumining tasviri bilan bog`liq bo`lgan ma'lumotlarni umumlashtirib o`rganish;

- liboslar magiyasi bilan bog`liq qarashlarning mazmuni, axloqiy-e`tiqodiy mohiyatini ochib berish hamda xalq madaniy turmush tarzida liboslarning urf-odatlar bilan bog`lanishini izohlash;

- kiyim kiydirish bilan bog`liq an'anaviy urf-odatlarining folklordagi badiiy tasviri va talqinini chaqaloqqa, kelin-kuyovga kiyim kiydirish udumlari jarayonida kuylanadigan qo`shiqlar misolida ko`rsatib berish;

- nikoh to`yi va aza marosimi bilan bog`liq bo`lgan kiyimlarning o`zbek xalq qo`shiqlarida tasvirlanishini ko`rsatib o`tish;

- xalq qo`shiqlari badiiy strukturasi bilan bog`liq bo`lgan liboslar bilan bog`liq obrazlarning turlarini tadqiq qilish va tasniflash;

- o`zbek xalq qo`shiqlarida kiyim-kechak turlari, ya'ni bosh kiyimlari, tan kiyimlarida hamda oyoq kiyimlarining xalq qo`shiqlarida obrazlantirilishini tahlil etish va hokazo.

Magistrlik dissertatsiyasining manbasi. Ishni yozishda xalq og`zaki ijodi namunalaridan jamlangan "Oy oldida bir yulduz", "Kelinoy qo`shiqlari"

turkumidan, shuningdek, Buxoro xalq qo`shiqlari asosida tartib berilgan “Buxor elda – gul sayli” to`plamlaridan manba sifatida foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining predmeti. O`zbek xalq qo`shiqlarida liboslar magiyasi bilan bog`liq obrazlar tasviri va talqini tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Magistrlik dissertatsiyasi ilmiy yangiligi. Ma`lumki, o`zbek folklorshunosligida liboslar magiyasiga aloqador xalq qarashlarining mazmun-mohiyati, kelib chiqish tarixiy ildizlari, obrazlar tizimi va tarkibi, an`anaviyligi masalasi xususida hozirlikcha alohida tadqiqot amalga oshirilgan emas. Shu inobatga olinsa, ushbu magistrlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy yangiligi, avvalo, shunda namoyon bo`ladi. **Ikkinchidan**, o`zbek xalq qo`shiqlarida liboslar magiyasi bilan bog`liq ramziy-timsoliy obrazlarning tizimi va tarkibi, o`ziga xos badiiy tasviri va talqini birinchi marta ilmiy jihatdan chuqur o`rganilmoqda. **Uchinchidan**, liboslar bilan bog`liq an`anaviy marosimlar, e`tiqodiy qarashlar ifodasining xalq qo`shiqlari badiiy strukturasiidagi o`rni va ahamiyati ilk bor keng tadqiq qilinmoqda. **To`rtinchidan**, o`zbek xalq qo`shiqlarida liboslar bilan bog`liq xalq e`tiqodiy qarashlarining obrazlantirilishi mif-marosim-folklor bosqichida kechganligi aniqlab berilmoqda.

Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosi va metodi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning ma`naviy qadriyatlarini tiklash va milliy an`analarni takomillashtirish g`oyalarini qo`llab-quvvatlashning nazariy asoslari haqidagi qarashlari mazkur tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

O`zbek xalq qo`shiqlarida liboslar magiyasi bilan bog`liq xalq qarashlarining obrazlantirilishini, uning genezisini ilmiy tadqiq qilishda H.T.Zarifov, M.Afzalov, T.Mirzayev, M.Murodov, B.Sarimsoqov, S.Ro`zimboyev, M.Jo`rayev, A.Musaqulov, M.Yoqubbekova, S.Mirzayeva, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, D.O`rayeva, D.Rajabov kabi folklorshunos hamda A.Ashirov, M.Asomiddinova kabi etnolog olimlarning asarlari asosiy ilmiy-nazariy manba vazifasini o`tadi.

Ishda **qiyosiy-tarixiy, tarixiy-madaniy, qiyosiy-analitik** metodlardan foydalanildi.

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy va amaliy ahamiyati. O`zbek xalq qo`shiqlarida liboslar magiyasi bilan bog`liq xalq e`tiqodiy qarashlari va tushunchalarining, urf-odatlarining badiiy talqin etilishiga xos xususiyatlarni aniqlash, uning kelib chiqish ildizlarini ochish, obrazlantirilishiga xos qirralarni asoslash uchun yaxlit tadqiqot holida amalga oshirilayotgan ushbu magistrlik dissertatsiyasining asosiy tahliliy xulosalari va umumlashmalari shunga o`xshash boshqa hodisalar bilan bog`liq magik qarashlarning, urf-odatlarining mohiyatini va an`anaviyligini, badiiy ifodasini qiyosiy-tarixiy aspektda o`rganishda o`ziga xos nazariy ahamiyat kasb etadi.

Chiqarilgan ilmiy xulosalar o`zbek folklorshunosligida bosh, oyoq, tan kiyimlari obrazining har biriga xos xususiyatlarni o`zaro taqqoslab o`rganishda, ular bilan bog`liq milliy urf-odatlarining badiiy tasviri va talqinini qiyoslab tadqiq etishda nazariy manba bo`lib xizmat qila oladi.

Ishda keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan oliy o`quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlarda xalq og`zaki badiiy ijodiyoti va etnologiya fanlari bo`yicha maxsus kurslar o`tishda va ma`ruzalar o`qishda, akademik litsey va o`rta umumiy ta`lim tizimida folklor fanidan dars mashg`ulotlari olib borishda, uni o`qitish yuzasidan usuliy qo`llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi va sinovdan o`tishi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetining o`zbek filologiyasi kafedrasida yig`ilishida muhokama etilib, tugallangan tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya qilingan.

Natijalarning e`lon qilinganligi. Ishning mazmuni bo`yicha Buxoro davlat universitetida 2014-2015 yillarda o`tkazilgan professor-o`qituvchilarning va talaba-magistrlarning an`anaviy ilmiy-nazariy anjumanlarida ma`ruzalar qilingan.

Ish yuzasidan 4 ta maqola chop ettirildi. Bular:

1. O`zbek xalq qo`shiqlarida kiyim-kechaklar talqini / Filologiya v sovremennom mire. Materiali Respublikanskoy nauchno-prakticheskoy

konferensii, posvyashyonnoy 200-letiyu so dnya rojdeniya M.S.Lermontova. – Buxara, 2014. – S.98-101.

2. O`zbek xalq qo`shiqlarida bosh kiyimlarining obrazlantirilishi / Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari. Materiallar to`plami. YI. – T.: Kamalak, 2015. – B.10-13.

3. Chaqaloqlarning chilla ko`ylagi bilan bog`liq xalq qarashlari / XXI asr – intellektual avlod asri mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – Urganch. – 2014 yil 16 dekabr. – B.626-630.

4. Kiyim nomlarining xalq qo`shiqlaridagi ifodasi / “O`zbek filologiyasining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Buxoro, 15-16 aprel 2015 yil. – B.156-158.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi. Ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

I BOB

LIBOSLAR MAGIYASI BILAN BOG`LIQ XALQ QARASHLARINING KELIB CHIQISH ILDIZLARI

I. 1. Kiyim-kechaklar bilan bog`liq magik-mifologik qarashlarning genezisi

Liboslar xalq madaniyatini o`rganishda qimmatli manbadir. Chunki kiyimlarda kishining ijtimoiy ahvoli, moddiy imkoniyati, kayfiyati, xalqning ramzlari mujassamlashgan. Dunyodagi barcha xalqlar bir-birlariga qanchalik yaqin bo`lishlariga qaramay, ularning kiyimlari, taqinchoqlari bir-biridan farq qiladi. Kiyinish kishining nafaqat tashqi qiyofasini belgilaydi, balki odamning ichki dunyosi va madaniyati, qaysi xalq, qaysi millat farzandi, qanday saviya kishisi ekanligini ko`rsatuvchi moddiy-ma`naviy timsoldir.⁴

Kiyim-kechaklar o`zbek xalqi tarixi bilan uzviy bog`liq bo`lib, u moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o`zligini aks ettirib, etnik belgilari bilan ajralib turadi. Kiyimlarda biron-bir el-elat tarixiga borib taqaladigan an`analar, ijtimoiy munosabatlar, ma`rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi, iqtisodiyoti va siyosatida o`zgarishlar bo`lib turishi bilan bir vaqtda kiyim shakllari ham o`zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go`zallik to`g`risidagi ideallari, xo`jalik yuritishning o`ziga xos jihatlari hamda oliaviy turmushning ba`zi tomonlari ham ko`zga yaqqol tashlanadi.⁵

Magiya arxaik din ko`rinishlaridan biri bo`lib, unga inonch xalqaro xarakterga ega. Chunki magiyaga ishonch barcha xalqlar orasida keng tarqalgan. Qizig`i shundaki, unga xos tushunchalarning izlari hozirgacha saqlanib kelmoqda. Bu haqda taniqli o`zbek qo`shiqshunosi A.Musaqulov shunday yozadi: “Fan va texnika g`oyat keskin rivojlanganiga qaramay, so`nggi yillarda unga (magiyaga – S.Sh.) inonch butun jahonda qayta jonlandi. Magiya jahon tafakkuri tarixida shu

⁴ Ибрагимова М. Либосларда халқ руҳи. – Мулоқот. – Тошкент. – 2001. – №5. – Б.28.

⁵ Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари. – Т.: Шарқ, 2003. – Б.5.

darajada muhim rol o`ynaganki, J.Frezer insoniyat tafakkur tarixini: **magiya, din, fan** bosqichlariga bo`lgan”.⁶

Magiya atamasi o`zbek folklorshunosligida ilk marta 1986 yilda marosimshunos olim Bahodir Sarimsoqov tomonidan,⁷ undan keyin o`zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlarning qo`llanilishini maxsus tadqiq qilgan eposshunos olim Mamatqul Jo`rayev tomonidan qo`llangan bo`lsa,⁸ istiqloq yillarida uni boshqa folklorshunoslar ham faol qo`llay boshladilar.⁹

Magiya haqida ingliz olimi Jorj Frezer ilgari surgan qarashlar va talqinlar juda qimmatlidir. U **magiya tamoyillari** haqida so`z yuritib, bu borada shunday fikr bildirib o`tadi: “Magik tafakkur ikki tamoyilga asoslanadi. Ulardan birinchisining qoidasiga ko`ra, o`xshash narsa o`xshashini keltirib chiqaradi yoki oqibat o`z sababiga o`xshashdir. Ikkinchi tamoyilga ko`ra, bir-biri bilan bir marta to`qnash kelgan narsalar, to`g`ridan-to`g`ri aloqa tugagach ham, yaqin-olis masofadan o`zaro ta`sir ko`rsatishlarini davom ettiraveradi. Birinchi tamoyilni o`xshashlik, ikkinchisini esa aloqadorlik yoki yuqtirish qonuni deb atash mumkin. Birinchi tamoyil, ya`ni aynan o`xshashlik qonuniga ko`ra, magiya unga taqlid qilib, har qanday istalgan harakatni bajarish mumkin”. Ikkinchi tamoyilga asoslanib u qandaydir predmetga qilgan ta`siri bilan shu predmet bilan bir marta aloqada bo`lgan shaxs (tanasining bir qismi va h.k.), buyumga albatta ta`sir ko`rsataman, degan xulosaga keladi... u o`xshashlik va aloqa qonuni nafaqat inson harakatlari, balki hamma narsaga tegishli deb, hisoblaydi.¹⁰

J.J.Frezer “Oltin butoq” nomli mashhur asarida sehr-jodu (magiya)ning mana shu ikki ko`rinishi borligini e`tirof etar ekan,¹¹ uning fikricha, magiyaning *gomopatik ko`rinishida* biror kishining narsasiga ta`sir ko`rsatish orqali uning o`ziga ta`sir ko`rsatish mumkin. Masalan, biror kishining sochini kuydirish orqali

⁶ Мусакулов А. Магик ишонч-иримлар реликтларининг халқ лирикасидаги поэтик кўринишлари / Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.99.

⁷ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.

⁸ Жўраев М. Ўзбек халқ эртақларида “сеҳрли” рақамлар. – Т.: Фан, 1993.

⁹ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010; Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004; Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Т.: Фан, 2009. – 132 б.; Миф, афсона ва талқин. – Навоий, 2015. – 102 б.

¹⁰ Фрезер Дж. Золотая ветвь. Выпуск 1. Магия идеологии. – М.: Наука, 1928. – С.19.

¹¹ Фрезер Дж. Золотая ветвь. Выпуск 1. Магия идеологии. – М.: Наука, 1928. – С.37-38.

uning boshiga og`riq kiritishga erishish gomopatik magiya samarasi hisoblanadi. Chunki “gomo” – yunoncha “o`xshash, bir xil” degani bo`lib, gomopatik magiya talabiga ko`ra o`xshash narsalar o`xshash narsani taqozo etishini bildiradi. Shunga binoan boshga unga yaqin va o`xshash narsa, masalan, soch orqali ta`sir ko`rsatmog`ini anglatadi.

Magiyaning *muloqot ko`rinishida* kishilarning o`zaro muloqotda bo`lishi orqali birining xususiyati ikkinchisiga yuqishi mumkin deb qaraladi. Masalan, suqlangan odamdagi kinna yuki u bilan muloqotda bo`lgan kishiga ham o`tadi, deb hisoblanadi.

Magiya qonunlarini tabiat qonunlarining buzilgan tizimi, yolg`on fan, samarasiz sa`nat deb baholagan olim ibtidoiy jamiyatda maglar ulkan ijtimoiy vazifa bajarib, butun jamoa manfaatlari uchun xizmat qilganlarini inkor etmaydi.

A.Musaqulov ta`kidlaganidek, fanda magiya haqidagi qarashlarda yakdillik yo`q.¹²

Mashhur yana bir etnograf S.A.Tokarev magiyani boshqalardan farqli o`laroq birmuncha to`liq ta`riflaydi: “Insonning g`ayritabiiy tarzda u yoki bu moddiy ob`ektga bevosita yoki bilvosita ta`sir qilishiga asoslangan. Ayni paytda animistik tasavvurlar bilan bog`liq bo`lmagan marosimlargina magiyadir”.¹³

Magiyaga ishonch xuddi animizmga ishonch kabi barcha dinlarning tarkibiga singib ketgan.

Magiyada narsalar g`oyat ko`p va muhim ahamiyatga ega. Ulardan bir qismi inson liboslari bilan ham bog`liq. Inson liboslari tarixan juda ko`p ma`nolar kasb etgan va o`ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o`tib, “kiyinish madaniyati” yaralishiga asos bo`lgan.

Moraviya slovaklarining milliy buyumlari vazifalarini o`rgangan olim P.G.Bogatirev xulosalarini jahondagi deyarli barcha xalqlar liboslariga tadbiq qilish mumkin.¹⁴ Olimning tadqiqotlari liboslar tarixan: amaliy, estetik, erotik,

¹² Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.100.

¹³ Токарев С.А. Ранние формы религии. – М.: ИПЛИ, 1990. – С.245.

¹⁴ Богатырев П.Г. Вопросы теории народного искусства. – М.: Искусство, 1971. – С.297-366.

magik vazifalar bajarishini, yosh, ijtimoiy-jinsiy, milliy mansublikni ifodalab kelganligini ko`rsatadi.

Kiyim – inson tanasining magik himoyachisi sifatida qaralgan. Shuning uchun kiyim turlari e`zozlangan. Ular bilan bog`liq turli e`tiqodiy qarashlar va irim-sirimlar shakllanishiga olib kelgan. Ammo kiyinish madaniyatining shakllanishida magik qarashlar bilan bir qatorda xalqlarning boshqa qadimiy inonchlari – totemizm, shomonlik, o`zaro ijtimoiy munosabatlar ham katta ahamiyatga ega bo`lgan. Xalq tassavurlariga ko`ra, kinna (suq, ya`ni ko`z tegishi) ko`pincha chiroyli xotin-qizlar, yoqimtoy go`daklar, bo`liq hosil maydonlari, yuguruk otlar, semiz uy hayvonlari, chiroylik liboslarga tushadi. Shu sababli o`tmishda nafaqat odamlar, balki yaxshi otlarning peshonasi, do`mbira, dutorlar tepasiga, kiyimlarning ma`lum qismlariga himoya tumorlari taqib yurganlar.

O`zbek xalqi go`zallik deganda, avvalo, yuz, qomat, bo`y, liboslar, sochning mutanosibligini tushunadi. Magiya nuqtai nazaridan hamda hosildorlik kultrlariga inonch tufayli inson yuzi, ayollar ko`ksi, belga tushib turgan sochlari eng nozik a`zoldardan hisoblanadi. Shuning uchun o`tmishda ayollar yuziga chachvon, ya`ni ot yolidan to`qilgan to`rni yopib, yuzi va ko`kragini yashirib yurishgan. Chunki soch magiyasi va ot kultiga inonchga ko`ra ot yoli xalq tassavurlarida magik himoya qilish qudratiga ega bo`lgan.

Animistik tassavurlarga ko`ra, inson kiyimi yovuz ruhlar o`ta olmaydigan afsunlar bilan tayyorlanishi kerak, deb hisoblangan.

Hozir ham e`tibor bersak, kelinchaklar kiyimlari turli kashtalar bilan bezatilganligini ko`ramiz. Bu kashtalar, bezaklar esa, shubhasiz, kelinchakni yomon ko`zlar, yovuz ruhlardan asrash, serfarzand va baxtli bo`lishiga magik ta`sir ko`rsatishga qaratilgandir.

Magik aloqa inson bilan uning buyumlari o`rtasida ham saqlanar ekan. “Buyum buyuk narsa, – deydi A.F.Losev, – uni nosog`lom odamgina mifga aloqasiz deb hisoblashi mumkin”.¹⁵

¹⁵ Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. – М.: ИПЛ, 1991. – С.27.

Tarixan liboslarning ahamiyati shu darajada muhim bo`lganki, qadimgi Shumer-Akkad mifologiyasida Uytu ismli kiyimlar ilohasi bo`lgan.¹⁶

Kiyim va ruh tushunchasini bog`liq deb o`ylash tufayli qadimgi odamlar o`tgan ajdodlari ruhi uchun kiyim kiyib yurishgan. Aytishlaricha, Amir Olimxon ham ota-bobolarining ruhini shod qilish maqsadida choponini etti qavat qilib kiyib yurgan. Shunisi bilan ham u yirik va salobatli ko`ringan.

Surxondaryoda hozirgacha nikoh to`yidan oldin yaqin vaqt o`rtasida vafot etgan qarindoshlari ruhiga hurmat sifatida ziyofat tashkil etilib, o`tganlar uchun ham sarpo berilishi odati saqlangan.

O`zbek xalqida kiyimlar bilan bog`liq juda ko`p magik irimlar saqlanib qolgan. Liboslarning magik kuchiga inonch, uning qayta mulohaza qilingan poetik ifodalari o`zbek folklorida ham juda ko`p uchraydi. Bu jihatdan bir latifa juda xarakterlidir:

“Afandi o`choqqa o`t yoqishga ko`p urindi, bo`lmadi, oxiri uyga kirib, xotining ro`molini o`rab chiqib, puflagan edi, o`t yonib ketdi.

– Ha, qo`rqmas ekansan-a ! – dedi Afandi o`tta qarab”.¹⁷

Yana bir latifada xotini mehmondorchilikka ketganda Afandi sigirni sog`ib olishiga to`g`ri kelibdi. Shunda Afandi xotining kiyimini kiyib, sigirni sog`ib olgan ekan.

Albatta, bu gaplar hozirgi zamon kishisi uchun kulguli tuyuladi. Ammo kiyimlar magiyasi, oilaga, oiladagi har bir ro`zg`or predmetiga, shuningdek, oilaviy o`choqqa ayollar javobgar bo`lgan davrlar uchun tabiiy magik usul bo`lgan. Tarixiy ildizi, aniqrog`i, olov kulti tufayli oiladagi o`choq, muqaddas joy va jinsiy mehnat taqsimotiga ko`ra o`choq bilan bog`liq ishlar ayol zimmasiga yuklatilgan. Shu sababli o`zbeklarda o`choq boshiga har kimni yaqinlashtira bermaydilar va qaynonaning kelinni birinchi marta o`choq bilan tanishtirishi ham ritual ahamiyat kasb etib kelgan.

¹⁶ Мифология Древнего Мира / Сборник статей. – Л.: Наука, 1977. – С.14.

¹⁷ Афанди латифалари. Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Б.Саримсоков, Ф.Йўлдошева. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б.250.

“Jinsiy taqiq, – deydi S.A.Tokarev, – tabiiy jins farqining o`ziga asoslanadi”.¹⁸

Ertaklarda ham kampirlarning olov egasi ekanligi o`choq ishlari ayollar vazifasi bo`lib kelganligini tasdiqlaydi. Ana shu sababga ko`ra Afandining olov yoqishi jinsiy taqiqni buzish namunasidir. Ayolga o`rgangan o`choq – olov Afandiga bo`ysunmaydi. Shunda u xotining ro`moli bilan go`yo olovni aldaydi. Hozirgi zamon kishisi uchun Afandi puflagan olovning yonib ketishi tabiiy hodisa. Shu sababli u Afandining laqmaligi ustidan kuladi. Ammo magiyaga inonch tufayli ro`mol o`ragan Afandi olovga xotinidek ta`sir qiladi. Bu o`rinda ro`mol kontagioz magiya tufayli magik kuchga ega. Bunda muhimi, buyumning nimaligida emas, balki ayolga tegishlilikidir.

Ko`pgina xalq ertaklari va dostonlarida parilar qanotlarini echib, go`zal qizlarga aylanadilar. Shomonlik afsonalarida esa shomonning turli parrandalar va jonivorlarga evrilishi hikoya qilinadi. Bunda u hech qanday predmet vositasidan foydalanmaydi. Shu sababli parilarning qanotlari kiyim vazifasini bajargan va magik ahamiyati tufayli ularning asl qiyofasini yashirib kelgan deya olamiz. Bu esa shomonlik e`tiqodlaridan keyingi va undan o`sib chiqqan qayta poetik idrok qilish tufaylidir. Bunday poetik mushohada keyinchalik qalb kechinmalarini kiyim vositasida ifodalashga ham zamin tayyorlagan.

Hayotda rang va libos magiyasi uyg`unlashtirib yuborilganligi kuzatiladi. Hatto eramizdan avvalgi II minginchi yillarda kishilarning kiyimi rangiga qarab, ularni tabaqaga ajratish urfga aylangan. Aytaylik, Xitoy xalq og`zaki ijodining qadimgi qo`shiqlar to`plami “Shi szik” (Qo`shiq kitobi)da aytilishicha, eng yaxshi rang – qizil bo`lib, u hukmdorlarga xos rang hisoblangan. Qora va sariq ranglar oddiy xalq uchun xos bo`lib, ularning kiyinish madaniyatida shu e`tiqod asosiy o`rin tutgan. Shuningdek, bu holni qadimgi o`zbek xalqi madaniyatida ham kuzatish mumkin. Jumladan, qadimgi hind eposi “Mahobhorat”da xudolar oppoq

¹⁸ Токарев С.А. Ранние формы религии. – М.: ИПЛ, 1990. – С.127.

kiyimda oq saroyda istiqomat qiladilar. Ularning sayrga chiqadigan otlari ham oppoq tusda tasvirlangan.¹⁹

Xalq qora rang qosh, sochga nisbatan qo`llanilganda go`zallikni, kiyimlarga ishlatilganda qayg`u-alamni ifodalaydi. Shuningdek, sariq rang xastalik ramzi bo`lib, bu sifat otlashib xalqda kasallik nomini ham bildiradi. Agar u kiyimning tusini bildirib kelsa (masalan, sariq las ko`ylak sifatida) navi past matodan tayyorlangan arzon kiyim tushunchasini anglatib keladi.

Sevgi magiyasiga aloqador yoqtirish, maftun qilish va yoqtirmaslik, o`zidan bezdirish bilan bog`liq ikki qutbiy qirradagi tushunchalar ham liboslar magiyasi uchun ham xosdir.

Qilnu bilsa *qizil kizar*,

Jaranu bilsa *jashil kizar*.

Mashhur tilshunos va elshunos Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” kitobida qadimgi turkiy tilda keltirilgan ushbu maqolda xotinlar eri bilan suhbat istaganda qizil ipakni kiyadi, yalinish va xushomadgo`ylik vaqtida yashil kiyim kiyadi, deyilgan. Xotinlar haqidagi bu maqol maqsadga erishish, yoqimli muomalada bo`lishni eslatish maqsadida aytiladi. Mazmunan shu maqolga yaqin bo`lgan boshqa maqolda: “Qiyanu bilca, qezil kezar, jaranu bilsa, jashyol kezar” deyiladi. Buning ma`nosi shuki, xotin noz-u karashmani bilsa, qizil rang ipakni kiyadi, yoqishni bilsa, ko`k ipakni kiyadi, ya`ni er hurmatiga sazovor bo`lgan kiyim kiyishadi.²⁰

Maqollarning mazmunidan shuni anglash mumkinki, bunda kiyimning rangi uning ahamiyatini belgilayotir. Shuningdek, qadimgi turkiylar orasida kiyim ranglari ularning turlarini ham anglatgan. Masalan, aj – to`q sariq rangdagi bir ipak kiyimlik; a:l – to`q sariq (ya`ni apelsin) rangdagi ipak kiyimlik; a:z yoki a: s – oq susar po`stin tushunchasini ifodalagan.

¹⁹ Жанглар қиссаси. Маҳобҳората ёки Бҳарата авлодлари жангномаси / Ҳ.Йўлдошев таржимаси. 2-нашр. – Т.: Ёш гвардия, 1976. – Б.224.

²⁰ Жанглар қиссаси. Маҳобҳората ёки Бҳарата авлодлари жангномаси / Ҳ.Йўлдошев таржимаси. 2-нашр. – Т.: Ёш гвардия, 1976. – Б.27-28.

Xalqning mifologik qarashlarida yashil rang (Xizr a.s) nomiga bog`lab talqin etiladi. Zero, Xizr turkiy xalqlarning mifologik tasavvuriga ko`ra, oq soqolli, oq otli va yashil to`nli chol qiyofasida namoyon bo`ladi.²¹

“Musulmon xalqlarida yashil rang, umuman, salbiy ma’noni anglatmaydi, – deyiladi rangshunos olim L.Mironovanning “Svetovedeniya” kitobida.²² Xalq tasavvurida yashillik uyg`onish, bahor, harakat, ezgulik, hayotiylik va tiriklik ramzida aks etadi. Bu tasavvur-tushuncha bevosita xalq qo`shiqlariga ham ko`chgan bo`lib, yashil rang turlicha ramziyliklarni ifodalab keladi. Xususan, yashil rang tabiatning uyg`onishi, hayot, tiriklik, yaratuvchanlik, navqironlik, umid, kelinlik go`zalligi ma’nolarida badiiy talqin qilinishi kuzatiladi:

Kelin degan *yashil bo`lar ko`ylagi*,

Jon ichida birga bo`lar keragi.

Kecha-kunduz avlodining tilagi –

Nomus-ori, pok g`ururi, bilagi.²³

Tekshiruvlarga qaraganda, odamlar kiygan kiyimining rangi ularning dunyoqarashi, maqsadi, ruhiy kechinmalari, tanlagan yo`li bilan bog`liq bo`lar ekan. Masalan, shod-xurramlikni, xotirjamlikni, quvonchni yoqtiradigan kishilar ko`pincha oq rangdagi liboslarni kiyishni xush ko`rishsa, bemaqsad, tez ikkilanuvchan, ba`zan sirli, maxfiy kishilar qora kiyishi, yuksaklikka, ulug`vorlikka intiluvchilar esa qizil kiyimlarni ko`proq kiyishga o`ch bo`lishlari ta`kidlanadi. Shuning uchun tasavvufda ranglarning ramziy ma’nolariga alohida e`tibor qaratilganligi kuzatiladi. Tasavvuf tariqatlarida ranglar har bir tariqatning asosiy g`oyasini, tushuncha va qarashlarini, muridning holatini, nafsning shakllarini o`zida tajassum etgan.

Kiyim bilan bog`liq e`tiqodiy qarashlar, ayniqsa, ich kiyimlariga munosabatda yanada ravshan ko`rinadi. Xususan, ayollarning ich ko`ylaklariga nisbatan mavjud bo`lgan irim-sirimlar ana shunday magik qarashlar hosilasidir,

²¹ Нурмонов Ф. Ўзбек фольклорида Хизр образи. – Т.: Фан, 2007. – Б.35.

²² Миранова Л. Цветоведения. – Минск, 1984. – С.76.

²³ Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.29.

deb aytish mumkin. Chunki ichki kiyim ayol libosining intim qismi bilan bog`liq bo`lib, ular hech qachon begona erkaklar oldida namoyon etilmaydi, sir saqlanadi.

Ayollarning ichki kiyimlarini ko`rsatmaslik odati magiyaga inonch bilan bog`liq bo`lgani sababli J.Frezer ham buni “ko`ylak yalang`och tananing magik kuchini o`tkazuvchi deb tushunilganidan” deb izohlaydi.²⁴

O`zbek xotin-qizlari ham hozirgacha ichki ko`ylaklari, lozimlarini yuvishganda kishi ko`rmas joyga iladilar va albatta, ustini yopib qo`yadilar. Bunga sabab muloqot magiyasiga inonchga ko`ra ayolning ich kiyimlarini ko`rgan kishi uning tanasini ham ko`rgan hisoblanadi.

J.Frezer har bir xalqqa alohida kiyimlar xudo tomonidan berilganligi inonchlarini qayd etgan.²⁵ Bizningcha, ana shunday inonchlar asrlar davomida liboslarning o`z milliy va hududiy (regional) xususiyatlarini saqlab kelgan. Chunki bunda an`anani buzish o`ziga xos shak keltirish hisoblangan.

Bu dalillar ayollarning azada ko`k (osmon ramzi) kiyish urflari inson kiyimlari ham tarixan ma`lum darajada osmon g`oyasi va hosildorlik kultlari bilan bog`liqligini ko`rsatadi. Xususan, do`ppi ramziy kashtalari bilan bevosita osmon g`oyasi, soch magiyasi bilan bog`liq buyumdir.

Aylana, doira shaklining magik himoya kuchiga inonch qadimda butun dunyoda keng tarqalgan. Yana belbog` ham belni aylanib, tanani quchib turadi uchun magik kuchga ega predmet sifatida qaralgan.

Lekin belbog`, salla kabilar diniy vazifa ham bajargan. Etnograflar etnografiya va folklor misolida qadimda to`siqlarning magik kuchiga inonch berk doiralar, kamar-qayishlarga ham ko`chirilganini aytadilar. O`zbeklarda bu magik vazifani belbog`lar bajargan.

G.P.Snesarev Xorazmda ko`zi yorigan juvon va chaqaloq atrofi magik himoya maqsadida arqon bilan o`rab qo`yilganini qayd etib o`tganki, bu dalil ham yuqoridagi xulosani yana bir bor tasdiqlaydi.²⁶ Shuningdek, olim kuzda

²⁴ Фрезер Дж. Золотая ветвь. Выпуск 1. Магия идеологии. – М.: Наука, 1928. – С.315.

²⁵ Фрезер Дж. Золотая ветвь. Выпуск 1. Магия идеологии. – М.: Наука, 1928. – С.27.

²⁶ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.154.

g`alla xirmoni atrofiga belkurak bilan aylana chiziq tortishlarini kuzatgan. Bu usul ham magik himoya qilishga qaratilgan.²⁷

Cho`ponlar otar yotishi oldidan albatga uni bir aylanib kelganlar va o`zlari yotgan joyni jun arqon bilan o`rab qo`yishgan. Bu ham amaliy, ham magik vazifa bajargan. Birinchidan, jun arqon turli chayon, qoraqurt, qumursqa kabi hashoratlarni o`tkazmagan, ikkinchidan, magik inonchga ko`ra cho`ponni yovuz kuchlardan himoya qilgan.

Xullas, o`zbek milliy kiyimlarini o`rganish xalqimizning etnik tarixi va nadaniyatini, uning boshqa elatlar bilan o`zaro aloqalarini tadqiq etish bilan chambarchas bog`liqdir. Milliy liboslar moddiy va ma`naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o`ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko`rsatuvchidir. Kiyimlarda urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba`zi bir elementlari, diniy e`tiqod, nafosat va estetik normalar o`z aksini topgan. Bundan tashqari kiyimlarda inson umrining fasllari, u yashagan joy va zamon, xo`jalik ish mavsumlari, hayotidagi quvonchli yoxud qayg`uli voqealar namoyon bo`ladi.²⁸ Albatta, bularning barchasi xalq ijodining badiiy namunalari o`z ifodasini topadi.

I. 2. Arxaik marosimlarda libos kiydirish udumlari

O`zbek xalqining urf-odatlarini asrlar bo`yi o`zbeklar millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an`analarining uyg`unlashuvdagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o`ta o`ziga xos, yorqin va turli-tuman bo`lib, urug`chilik patriarxal munosabatlardan kelib chiqqan. Urf-odatlarining ko`pchiligi oilaviy hayotga tegishli bo`lib, bolaning tug`ilishi va tarbiyasi (beshik to`yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to`yi, to`y) bilan bog`liq bo`ladi. Ko`pincha ular islom urf-odatlarining sehrgarlik amaliyoti bilan bog`liq bo`lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy

²⁷ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.221-222.

²⁸ Н.Содиқова. Ўзбек миллий кийимлари. XIX-XX асрлар. – Т.: Шарқ, 2003. – Б.6.

kirib ketishini namoyon etadi. Islom qabul qilinganidan beri ko'pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta'sirida o'zgargan, o'zbeklarning hayotiga musulmon dininiy marosimlari kirib kelgan. Hafta kunlarining muqaddaslashuvi diniy marosimlar ta'sirida paydo bo'lgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi va shu kuni barcha yig'iladigan masjidida umumiy namoz (duo) o'qiladi. Patriarxal urf-odatlar masjid, choyxonalar, bozorda o'tadigan hamda faqat erkaklar ishtirok etadigan jarayon sifatida ijtimoiy hayotda hozirgacha ham yashamoqda. Ushbu marosimlarda erkaklar maxsus liboslar kiyishgan. Ularning maxsus, hozirgi kunning tili bilan aytadigan bo'lsak, yaktaklari bo'lgan. Ushbu marosimiy kiyim bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda.

Arxaik shomonlik marosimlarining aksariyati raqs harakatlari asosida o'tkazilgan. Bunda shomon ijrochining libosi ham alohida e'tiborda tutilgan.

Hozirgi paytda raqqosalarning liboslari ularning raqsi obrazlariga aniqlik baxsh etishi ma'lum. Masalan, Buxoro raqqosalari, odatda, yeng, yoqa, etaklari zehiga kashta (ba'zan zardan) tikilgan keng ko'ylak, oyoqlariga poshnali baland guldor etik kiyib, boshlariga peshonaband yoki tilla qasava bog'lab, bilaklriga zangila, ko'kraklariga zebigardon va boshqa zebi-ziynat taqishgan. Raqqosalar kundal, adras, kimxob kabi matolardan keng qilib tikilgan kamzul yoki zardo'zi yaktak, yakrang shoyidan salla o'rab, oyoqlariga poshnali baxmal etik kiyib chiqqanlar.

Sahnada xirom etayotgan raqqosaning harakatlari raqs kuyi, raqsning mazmuni tomashabinga to'laligicha yetib borishida raqs libosining ahamiyati kattadir. Raqs liboslaridagi bezaklar, taqinchoqlar, naqshlarning barchasi raqsning xarakterini, uslubini, raqslarning bir-biridan farqlanishini ko'rsatib beradi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi raqsi o'zining uchta maktab yo'nalishiga ega. Ular bir-biridan nafaqat musiqasi va harakatlari, shuningdek, liboslari bilan ham ajralib turadi. Ularning har biri o'zgacha tarixga, qadr-qiyamatga ega.

Buxoro uslubidagi raqs xarakteriga mos zalvorli, og'ir, bosiq kuyga uyg'unlashib ketadigan etagi va yengi keng, zarhal iplar bilan tikilgan naqshli ko'ylaklar, zarli peshonaband bosh kiyimi, orqasida harir ro'mol bilan ijro etiladi.

Buxorocha raqsda tananing nozik egilishlari, raqs harakatlarining murakkab tuzilishi shundan dalolat beradiki, bu raqs xalq o`yinlaridan oziqlanib, katta ijodkorlar davrasida rivojlanib kelgan. Ularda jonli tabiat va inson tuyg`ulari aniq ifoda etilgan. Raqslar ritmik jihatdan tez, shiddatli va mag`rur bo`ladi, shuning uchun ham bu uslubdagi raqs maktablari o`zlariga harakatlanishlari uchun qulay bo`lgan keng-keng liboslarni tanlashgan.

Buxorocha raqslarda qo`llar murakkab harakatlarni bajarishini e`tiborga olib, unda kiyiladigan liboslarning yenglari ham keng qilib tikilgan.

Kiyimning magik himoya qudratiga e`tiqod nafaqat raqs san`atida, balki to`y va aza marosimlari udumlarida ham saqlanib qolgan. Yana Navro`z va Hayit ayyomlarida har kim o`zi va bolalariga sharoitiga qarab, imkon qadar yangi kiyim kiydirishga urinishi bejiz emas. Bu bilan baland martaba va gunohlardan forig` bo`lish istagi ko`zda tutilgan.

Liboslarning magik himoya qudratiga e`tiqod, ayniqsa, to`y va motam marosimlari udumlarida yaxshi saqlanib qolgan. Aytaylik, xalqimiz orasida an`anaviy to`y marosimlarida kiyimlar va ularning rangi ramziga alohida e`tibor beriladi. Masalan, muchal to`yida 12 yoshdan 13 yoshga qadam qo`ygan o`g`il-qizlarga oq liboslar kiydiriladi. Bu udumning tarixiy ildizlari zardushtiylik bilan bog`liq. Zero, zardushtiylarning sidrapo`shlik udumida har bir zardushtiy o`n besh yoshga to`lgach, unga oq matodan chakmon, ko`ylak kiygizib, boshiga salla o`rab, beliga oq qo`yning etmish ikki tola yungidan to`qilgan belbog`ni bog`lash odat bo`lgan va bu odat salkam o`n uch asr davom etgan.²⁹

Zardushtiylarning shu dinga mansubligi belgisi belga uch marta aylantirilgan buyum bo`lib, uni o`n besh yoshdan ayollar ham, erlar ham bog`lashgan ekan.³⁰

Oq kiyim zardushtiylar diniy e`tiqodi ramzi bo`lgan. Oq libosning zardushtiylik ramzi ekanligi borasida “Yasht”ning “Mitra qasidasi”da alohida ta`kidlangan.³¹

²⁹ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.62.

³⁰ Бойс М. Зороастрийцы: Верования и обычаи. – М.: Наука, 1987. – С.42.

Mifologiyada oq rang “xudolar rangi, ko`zga ko`rinmas qudratli kuchlar rangi”³² sifatida ilohiy deb qaralgan. Ayniqsa, bunday ishonch Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqalgan. Shu bois haj ziyoratini ado etish maqsadida “Xudoning uyi” (Ka`ba)ga boruvchilar maxsus oq kiyimda yo`lga chiqadilar.

Sunnat qilinayotgan bolaga ham oq ko`ylak kiydiriladi. Bunda oq rang poklik, pokizalik timsoli hisoblanishi bilan birga ramziy ma`noda bolaning ulg`ayganligini ham ifodalaydi.

Nikoh marosimlari bilan bog`liq an`analarda oq rang simvoli juda ko`p ko`zga tashlanadi. Bu marosimdagi oqliklar (oq rang bilan bog`liq ramziyliklar) yoshlarning baxtli va porloq kelajagi ramzini ifodalab keladi. Bunga, avvalo, nikoh to`yining ilk bosqichi bo`lgan sovchilik udumidayoq alohida ahamiyat qaratiladi. Jumladan, odatimizga binoan, sovchilikka borganlarga qiz tomon rozi bo`lsa, oqlik (oq ro`mol, oq holva) berishadi. Shundan so`ng kuyov tomon kelinga oq rangli nikoh ko`ylagi va katta oq harir ro`mol jo`natadi. Nikoh marosimida kelin-kuyov oq rangdagi liboslar kiyishadi.

Arxaik marosimlar sirasiga kiradigan “Belbog` yechar” marosimi O`zbekistonimizning ba`zi hududlaridagina o`tkazilib keladi. Shulardan biri Xorazm vohasida nikoh to`yida o`tkaziladigan ushbu marosim o`zining folklor elementlariga boyligi bilan boshqa marosimlardan ajralib turadi.

Akang oting uch yashar,

O`rama belbog` yarashar

Sizdek barno yigitga

Bizdek qalliq yarashar.

Malumki, belbog` – erlik ramzi. Ayollar ro`moli kabi erlar belbog`i ham tarixiy asoslarga ko`ra, jinslarni farqlash uchun xizmat qiladi. Xalq lirikasida belbog` erlarning aniqlovchisi bo`lib, poetik ramz darajasiga ko`tarilgan.

³¹ Авесто: Яшт китоби. М.Исҳоқов таржимаси. Тарихий-адабий ёдгорилик. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.66.

³² Миронова Л.Н. Цветоведение. – Минск, 1984. – С.60.

Yuqorida keltirilgan qo`shiqni tahlil qilgan M.Alaviya “Qizlarning yigitlarga belbog` tikib berish odati o`zbeklarda juda qadim zamonlardan rivojlangan”ligini³³ qayd qiladi.

Davrlar o`tishi bilan belbog` timsolining ramziy ma`nosi kengayib, boylik, davlat tushunchalarini ham anglatgan. Xalq qo`shiqlarining tarixiy asoslari bo`yicha ish olib brogan A.Musaqulov xalq lirikasidagi belbog` detalining tarixini quyidagicha sharhlaydi: “O`zbek belbog`lari amaliy, marosimiy, magik funksiyalarga ega. Er va ayollarning aza va to`ylarda bel bog`lashlari ritual ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar yigitlar va erlari uchun turli inonch va irimlar bilan belbog` tikkanlarki, bu belbog`ning magik funksiyasini belgilaydi”.³⁴

Hatto Xorazm vohasida tug`ayotgan ayol yoki juvonnini tug`ruq paytida qalin arqon bilan o`rab olganliklari haqida ma`lumotlar uchraydi. Bu esa o`sha davrda magik himoyaga ishongan xalq tushunchalarini ifodalaydi.

To`y marosimida gulxan yoqib, uning atrofida kelin-kuyovni aylantirish ajdodlarimizning olov kultiga sig`inganligining qoldig`i bo`lib, arxaik udumlar sirasiga kiradi. U o`zida xalqning olovni muqaddaslashtirishi, kelin-kuyovning yangi turmushida uchraydigan xafagarchiliklarni, kulfatlarni va shuningdek, baxtsizliklarni oldindan olov kulti orqali tozalash g`oyalarini ifoda etadi.

Olov atrofida aylanayotgan vaqtda kelin paranjida bo`lib, paranji uning kelinchaklik ramzi sanaladi. **Paranji** magik xususiyatga ega deb qaralgan o`zbek milliy marosim liboslaridan biridir. Paranji o`zbek xalqi tarixini kamsituvchilar uchun yaxshi bahona bo`lib keldi. Sho`rolar davrida unga hujumlar uyushtirildi, shu tufayli xotin-qizlar o`ldirildi. Holbuki, tarixiy taraqqiyot tufayli ko`pgina islom mamlakatlarida paranji “hujum” kampaniyalarisiz ham o`z tarixiy-etnografik vazifalari va mavqeini yo`qotib bormoqda.

Paranjining turkiy xalqlar, o`zbeklar milliy turmushiga kirib kelishi, bizningcha, islom dini bilan bog`liq. Islomni tanqid qiluvchi ba`zi mualliflar “u yurishga halaqit beradi”, degan bahonani ro`kach qiladilar.³⁵ Holbuki, ko`pgina

³³Алавия М.Ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: ЎзР ФА нашриёти, 1959. – Б.19-21.

³⁴Мусақулов А. Ўзбек халқ қўшиқларининг тарихий асослари. – Т., 1995. – Б.154.

³⁵Климович Л.И. Ислам. – М.: Наука, 1965. – С.292.

zamonaviy evropacha liboslar axloqsizlik, noqulaylik jihatidan paranjini ancha ortda qoldirib ketadi.

Ilgari paranji yopinish odati rivojlanmagan ko`chmanchi o`zbek urug`larida ham ayollar hayotidagi muhim davrlar – kelinchaklik, og`ir oyoqlilik paytlarida paranji yopinish odati bo`lganligini ko`rsatadi.

Daryolarni yoqalab-yoqalab, soy keladi,

Paranjiga o`ralib olib, yor keladi.

Paranjiga o`ralmasa, kim ko`radi,

Uning oydek jamoliga kim to`yadi.³⁶

Turmushda kelinchak paranjisining o`ziyok, kishida estetik zavq uyg`otadi. Qizlarga, yigitlarga, ayollar, erlar – yosh-u keksaga turlicha ta'sir qiladi. Har birini o`tmish va kelajak sari xayollar og`ushiga etaklaydi. Boshqacha aytganda, kelinchak paranjisi go`zallik, yangi hayot qo`shig`ining ramzidir. Mantiqan qaralganda, paranjiga o`ralgan yorni ko`rib, oydek jamoliga to`yib bo`lmaydi. Ammo bu faqat begonalar uchundir.

Paranji marosim libosi, kelinchakning aniqlovchisi bo`lganligi uchun o`zbeklarda yuz ochish ajoyib to`y marosimlaridan biridir. Agar kelinchak paranji yopinmasa, ritual liboslar kiymasa, uning to`yga yasanib kelgan boshqa qizlardan farqi, yuz ochish marosimining hojati ham qolmaydi. Shu sababli paranji kelinchakni yashirmaydi, aksincha, kelinchakligini namoyish qilib turadi. Ota-ona, yanga, kuyov esa uning oydek jamoliga istagan paytida to`yishi mumkin.

Etnograf G.P.Snesarev nikoh marosimlaridagi chimildiq ham magik himoya vositasi ekanligini, keyinroq, kelinchak farzandli bo`lgach, undan beshik uchun yopqich tayyorlanishini aytadi.³⁷

Magik inonchga ko`ra, onani kelinchakligida himoya qila olgan buyum uning farzandiga ham pano`h bo`la oladi. Chimildiq kelin-kuyovni magik himoya qilibgina qolmay, paranji kabi bo`lg`usi serfarzand va baxtli turmushga zamin

³⁶ Климович Л.И. Ислам. – М.: Наука, 1965. – С.292.

³⁷ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.77-78.

ham bo`ladi deb tushunilgan. Shu sababli to`y qo`shiqdarida chimildiq faol poetik detallardan biridir:

Chimildiqning bog`ini

To`qitganmiz, yor-yor.

Kelinchakni so`rasangiz

O`qitganmiz, yor-yor.³⁸

Misolimizda **to`qiganmiz** emas, aynan **to`qitganmiz** deyilishiga sabab shundaki, an`anaga ko`ra chimildiq va paranji tikishni, albatga, serfarzand hamda uzoq umr ko`rgan ayol boshlab bergan. Bu etnografik dalil qo`shiqda yashirin. Ammo xalq irimlaridan xabardor kishi **to`qitganmiz** so`zini eshitishi bilanoq bu odatni yodga tushiradi. Shu sababli xalq qo`shig`i o`ziga xos turmush va tarixning poetik xotirasi hamdir.

Shu narsa diqqatga loyiqlik, Qur`oni Karimning “Ahvob” surasida Olloh shunday amr qiladi: “Ey payg`ambar, juftlaringizga, qizlaringizga va mo`minlarning ayollariga ayting, ustlariga yopinchiqlar o`rasinlar. Mana shu ularning (cho`ri emas, balki ozod ayol ekanliklari) tanilib, ozorlanmasliklari uchun eng yaqin (vositadir)”.³⁹

Paranji ayollar yopinchig`i sifatida Arabistonda ham ozodlik belgisi bo`lgan. Qul ayollar va fohishalargina paranji yopinsa, jazolangan. Lekin hozir paranjini targ`ib qilish juda kulgili. Biroq uning tarixini, marosimiy-ramziy vazifalarini, qolversa, u baxsh etadigan estetik zavqni bilib-bilmay tanqid qilib bo`lmaydi.

Kiyim kiyayotganda yoki kiydirilayotganda olqish aytish rasmi ham uning bevosita marosim bilan bog`liqligini ko`rsatuvchi muhim dalildir. Zero, bunda “San bir yillik, man ming yillik deyiladi”. Yana yangi kiyim kiyayotganda, albatta, uning ustidan uch marta tepib qo`yiladi. Go`yo shu bilan kiyim ichiga uning egasidan oldin kirib olgan yovuz ruhlar ezib ashlanadi. Kiyim kiyishda,

³⁸ Остонаси тиллодан. Тўй кўшиқлари / Нашрга тайёрловчилар: М.Мирзаева, А.Мусақулов. – Т.: Фан, 1992. – Б.25.

³⁹ Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Шарқ, 1992. – Б. 296.

odatda: “Etagi moyli bo`lsin, umri ziyoda bo`lsin, bu kiyim, mayli, bir yilda to`zsin, ammo ming yil yashasin”, – deya ezgu niyat bildiriladi.

Xullas, arxaik marosimlar mavjud insoniyat marosimlarining ibtidosi sanaladi. Ushbu marosimlarda amalga oshiriladigan ba’zi bir udumlari hali ham O`zbekistonimizning ba’zibir hududlarida saqlanib, amal qilinib kelinmoqda.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Inson liboslari magik qarashlar bilan bog`liq. Chunki kiyim turlariga inson tanasining magik himoyachisi deb qaralgan.

2. Inson liboslari tarixan juda ko`p ma`nolar kasb etgan va o`ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o`tib, “kiyinish madaniyati” yaralishiga asos bo`lgan.

3. Kiyinish madaniyatining shakllanishida magik qarashlar bilan bir qatorda xalqlarning boshqa qadimiy inonchlari – totemizm, shomonlik, o`zaro ijtimoiy munosabatlar ham katta ahamiyatga ega bo`lgan.

4. Qadim insonlar kiyim va ruh tushunchasini bog`liq deb o`ylashgan. Shundan kelib chiqib, qadimgi odamlar o`tgan ajdodlari ruhi uchun qavat-qavat kiyim kiyib yurishgan. Yana o`tgan ajdodlari ruhiga atab marosimlar o`tkazib, ular ruhiga sarpolar, yirtishlar berishgan.

5. Kiyimlarda jinsiy taqiq alomatlari ham aks etadi. Kiyimlar tabiiy jins farqiga asoslanadi. Shuningdek, hayotda rang, sevgi va libos magiyasi uyg`unlashtirib yuborilganligi kuzatiladi. Kishilarning kiyimi rangiga qarab, ularni tabaqaga ajratish urf bo`lgan.

6. Kiyim bilan bog`liq e`tiqodiy qarashlar, ayniqsa, ich kiyimlariga munosabatda, kiyim kiyish marosimlarini tashkil etishda, kiyimlarga qarata olqish aytish udumining saqlanib qolishida yanada yorqin aks etadi.

7. Kiyimning magik himoya qudratiga e`tiqod arxaik sidrapo`shlik marosimlari misolida ham kuzatiladi. Kiyimlar bilan bog`liq arxaik tushunchalar hozirgi raqs san`atida yaxshi saqlanib qolgan.

8. Liboslarning magik himoya qudratiga e'tiqod, to'y va motam marosimlari udumlarida ham saqlanib kelmoqda. Xalqimiz orasida an'anaviy to'y va aza marosimlarining o'z maxsus kiyim-kechaklari shakllangan.

II BOB

KIYIM KIYDIRISH BILAN BOG`LIQ AN`ANAVIY URF-ODATLAR FOLKLORI

II.1. Bolaga kiyim kiydirish udumi qo`shiqdari

Chaqaloqlik kiyimi insonning ilk kiyimi bo`lsa, kafan so`nggi kiyimi hisoblanadi. Shuning uchun tarixan chaqaloqni, nikohga kirishayotganlarni, marhumlarni kiyintirish – inson mohiyati o`zgarishining ramzi bo`lib, qayta kiyinish har bir inisial jarayon uchun qonuniyat bo`lgan.

Kiyimlar magik-ritual ahamiyatga ega bo`lganligi uchun xakaslar go`dakning birinchi kiyimini keksa kishining ko`ylagidan tayyorlashgan bo`lsa, o`zbeklarda ham bu odat kuzatiladi.

Ma'lumki, chaqaloq hayotining dastlabki qirq kuni "chilla" davri hisoblanadi. Bu davr bilan bog`liq juda ko`p irim-sirimlar, urf-odatlar shakllangan. Ulardan biri chaqaloqqa shu davrda maxsus chilla ko`ylagini kiydirishdir.

Chaqaloqlar chilla davri tugaguncha juda ehtiyot qilinadi. Begona ko`zlardan asrab-avaylanadi. Chunki chilla vaqti chaqaloq hayotining eng xavfli va nozik davri sanaladi. Qadimgi mifologik tasavvur-tushunchalarga ko`ra, go`yo bu davrda hali juda nimjon bo`lgan bolaga ko`zga ko`rinmaydigan turli insu jinslar va boshqa zarar etkazuvchi parilar tegishishi mumkin. Shunday qarashlar asosida chillali ona-bolani yovuz kuchlar xurujidan asrash nazarda tutilgan. Chaqaloqlar qirq kungacha (chilla so`zi fors-tojikcha "chil", ya'ni "qirq" miqdorini anglatadi) qattiq himoya qilingan.

Chaqaloqqa chilla saqlash udumi juda ko`p xalqlar urf-odatida uchraydi. Har bir xalq uni o`z turmush an`analari doirasida bajarishi kuzatiladi. Har bir xalqda chilla bilan bog`liq turli irim-sirimlar mavjud.

Chaqaloqqa chilla ko`ylagini kiydirish xalqimiz orasida o`ziga xos maxsus marosim sifatida o`tkaziladi. U chaqaloq uch kunga to`lganda bajariladi. Chilla

ko`ylak chaqaloqning birinchi ko`ylagi hisoblanadi. Shuning uchun uning kiydirilishini qutlash ma'nosida kichik doirada maxsus yig'in-tadbir o'tkaziladi.

Chaqaloqlarning chilla ko`ylagi, odatda, yangi matodan emas, aksincha, bobosi yoki momosining burun ishlatilgan eski ko`ylagidan parcha olib tikiladi. Bu bilan bolakayning bobosi yoki buvisi singari uzoq yashashi, uvali-juvali bo`lishi niyat qilinadi. Chilla ko`ylagini qaychida kesib bichmaydilar, balki u qo`lda yirtib bichiladi. Bu bilan bola umri kesilmasin, degan niyat qilinadi.

Chaqaloqqa chilla ko`ylak kiydirishning o`z tartib-qoidalari bor. Chilla ko`ylakcha tayyorlab bo`lingach, bolaga birdaniga kiydirilmagan. Dastlab uni yo ot qozig`iga, yo qo`y bog`langan mixga kiygizib olishgan. Bunda bolaga: “Bismillohir rahmonir rahim. Qo`y kabi yuvosh, qo`y og`zidan cho`p olmagan bo`l”, – deya olqish aytilgan. Shundan so`ng chilla ko`ylagi o`g`ircha – hovoncha dastasiga yoki qayroq toshga ham kiygizib olingan. Bunda endi bolaga qarata: Bismillohir rahmonir rahim. Boshing toshday qattiq bo`lsin”, – deyilgan. Uchinchi marta ko`ylakcha chaqaloqqa kiygizilgan. Shu jarayonda unga: “Omin, ilohi parvardigor, shu bolam katta bo`lsin, umri ziyoda bo`lsin. Bu ko`ylakning umri qirq kun, sening umring ming kun. Ilohim, rizqu ro`zli, baxtli-taxtli, omadli, mo`minu qobil bo`l”, – degan ezgu tilaklar izhor etiladi.

Chaqaloqlarga chilla ko`ylagini kiydirish jarayonida aytiladigan bunday xalq olqishlari nasriy ko`rinishdan tashqari she'riy ko`rinishda ham uchraydi. Yuqorida uning saj'li nasriy ko`rinishlaridan misol keltirilgan bo`lsa, quyida she'riy ko`rinishidan misol keltiramiz:

Yoqasi moyli bo`lsin,

Etagi loyli bo`lsin.

Mayli bir yilda to`zsin,

O`zi-chi ming yil kulsin.

Agar chaqaloq burungi bolalari ketma-ket nobud bo`lgan onaning zurriyodi bo`lsa, chilla ko`ylagi sifatida “it ko`ylakcha” kiydirilgan. Bu ko`ylakcha ham eski, qoldiq matolardan tayyorlangan. U avval kuchuk bolasiga, keyin chaqaloqqa kiydirilgan. U dastlab itga kiydirilib olinishi bois “it ko`ylakcha” nomini olgan. Bu

ko`ylakchani kiydirish jarayonida chaqaloqqa qarata: “Ilohim, kuchukbachchadek ko`payib ket, ota-onangga itdek vafodor bo`l”, – deb olqish aytilgan. Ertasiga it ko`ylakcha chaqaloq egnidan echib olinib, yangi ohorli ko`ylakchaga almashtirilgan. Bunday almashtirish marosimsiz kechavergan.⁴⁰

Qadimgi odamlar farzand ko`rgan ayol va uning chaqalog`iga it timsolidagi homiy rahnamolik qiladi deb o`ylagan.⁴¹ It bor joydan jin-ajina va alvasti qochadi deb qaralgan.⁴² Shuning uchun it ko`ylakcha kiydirilsa, bola hayotiga ular xavf sololmaydi deb hisoblangan.

Aslida itning chillali ayol va chaqaloq homiysi sifatida tasavvur qilinishi zardushtiylik bilan bog`liq an`anadir. “Avesto”da zikr etilishicha, Chinvat ko`prigi ustida turadigan it o`liklar mulkining posboni emish.⁴³ Bu jonivorni otashparastlar ramziy ma`noda eng pok jonzot deb bilishgan.

Hozir ham chaqaloqlarga chilla ko`ylagini kiydirish an`anasi biroz saqlanib qolgan. Ammo hozirda uni eski lattalardan emas, yangi matodan tayyorlashadi. Bu bilan chaqaloqni gigienik tomondan himoya qilish maqsadi ko`zda tutiladi.

Bola yangi kiyimda gul-gul yashnaydi. Bu hol ota-ona qalbini to`lqinlantiradi, g`ururini oshiradi. Shundan bo`lsa kerak, talay erkalamalarda kattalar bolajoni ustidagi kiyimlarning xil-xil tovlanishlarida farzandi istiqboliga daxldor orzu-umidlarini jilolantirganlar:

Bay-bay ekan ko`ylakchasi,
Ko`ylakchasi-mo`ylakchasi.
Chiqa qolsin mo`ylabchasi.

Yoki:

Mening qizim oppoqqina,
Boshida zar qalpoqqina,
Kimlar shuni ko`rolmasa,
Ko`ziga sho`r tuproqqina.

⁴⁰ Qarang: Saфаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985.

⁴¹ Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 250 б.

⁴² Qarang: Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985.

⁴³ Qarang: Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985.

Goho shu kiyim kichkintoyda o`z yaqin kishilarini, urug`-aymog`ini tanishtirish vositasi sifatida talqin qilinadi:

Babalaki bo`ppisi bor,

Boshida do`ppisi bor.

Kayvoni bibisi bor,

Sarkarda bobosi bor.

Yoki:

Ummatvoy uttalaga,

Ot bog`lasin butalarga.

Shoyi ko`ylak englarida,

Jo`ralari yonlarida.

Uttala, hoy, uttala.

Navro`zda har kim boriga yarasha yangi kiyim kiygan. Buxoroning ayrim joylarida navro`z kunlari tomlar shipirilib, yangi kiyim kiyiboq, avval tomga chiqqanlar va o`zlarini namoyish etganlar. Bu bilan baland martaba va gunohlardan forig` bo`lish havas qiling.

Muchal ham Navro`z kunlari nishonlanadigan va bevosita 12 yoshni to`ldirib, 13 yoshga qadam qo`ygan bolalar sha`niga bag`ishlangan marosim hisoblanadi. Osiyo va Afrikada keng tarqalgan bu marosimning tarixi qadimgi Grek-Baqtriyaga borib taqaladi.⁴⁴ O`tmishda bola muchali qaysi yilga to`g`ri kelsa, fe`li ham o`shanga mos bo`ladi,-degan aqidaga ishonganlar. Marosim uchun qizga ham, o`g`il bolaga ham boshdan-oyoq oq kiyim qilingan. Bu bilan muchali nishonlanayotgan bolaning kelajagi porloq va baxtli bo`lishi istalgan. Buxoroda bu «mo`ljardaroyon» ham deyilgan.

Muchal kiyimini kiydirish jarayonida bolaga shunday deyiladi:

San bir yillik,

Man ming yillik.

Kiya-kiya to`zdiraylik.

Ko`rgan ko`zni qizdiraylik.

⁴⁴ Qarang: Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985.

Yangi kiyim bolalar toʻrtliklarida farovonlik ramzi tarzida kuylanadi. Oʻtmishda etikchaning «koʻnasiga ham zor bolalar davriga munosib kiyinadigan boʻladilar. Botinka davr ruhining rusumiga aylangan poetik obraz sifatida toʻrtlikda ifodalangan koʻtarinki kayfiyatnigina emas, balki bolalar turmushiga mos etnografik oʻzgarishlarning zuhurini ham taʼminlab turibdi:

Zap botinkam bor edi,
Oyoqchamga tor edi.
Kiyib chiqsam koʻchaga
Qizlar menga zor edi.

Umuman aytganda, bolalarga yangi kiyim kiydirishni olqishlash va unga aloqador qoʻshiq hamda aytim-olqishlarni ijro etish udumi bolaning keyingi yosh davrlarida ham davom etaveradi.

Xullas, kiyim inson tanasining himoyachisi va koʻrki hisoblanadi. Shu hayotiy haqiqat uni magik himoya vositasi deb qarashga va unga nisbatan ritual munosabatda boʻlishga olib kelgan.

II.2. Nikoh urf-odatlar bilan bogʻliq kiyimlarning toʻy qoʻshiqlaridagi talqini

Oʻzbek xalqining sevimli qahramonlik eposi – “Alpomish” dostonida oʻzbek nikoh toʻylarining uch bosqichi: 1) nikoh toʻyigacha boʻladigan urf-odatlar; 2) nikoh toʻyi vaqtida oʻtkaziladigan marosimlar; 3) nikoh toʻyidan keyin oʻtkaziladigan marosimlar tasviri yorqin badiiy aks ettirilgan.

Dostonda oʻzbek nikoh toʻyining birinchi bosqichiga daxldor “qiz tanlash” yoki “qiz koʻrish”, “ogʻiz islash”, “sovchilik”, “roʻmol oʻrash”, “fotiha”, “qalliqqa bormoq” yoki “qalliq oʻyini”, “toʻqqiz bichish” singari udumlar va ularga aloqador poetik aytimlar doston sujetiga mahorat bilan singdirilganiga guvoh boʻlish mumkin. Jumladan, dostonida sovchilik udumi aks ettirilgan ekan, u bilan bogʻliq

“sarmo kiydirish” odati alohida tilga olingani kuzatiladi. Darhaqiqat, udumimizga binoan, agar qiz tomon kelgan sovchilar bilan qudalashishga rozi bo`lsa, ularga zo`r ziyofat berish barobarida qimmatbaho sarpolar ham kiydirib jo`natish odati hozirgacha saqlanib kelayotir. Ma`lumki, dostonida sovchilikka kelgan Surxayil kampirni it talab, egnidagi kiyimlarini yirtadi. Uning yalang`och bo`lib qolganini ko`rib, boybicha uyiga borib, yangi kiyimlar olib kelib, kampirning ustidagi kuchuk yirtgan kiyimlarini echib olib, yangi kiyim kiydirib, kuchuklarini urib, kampirning dimog`ini chog` qilib, uyiga ergashtirib boradi. Yolg`onchi kampir esa shu holatni yashirib, Qorajonni aldaydi. U ustidagi yangi kiyimlarni Barchinning onasi it talaganini uchun berganini yashirib, aksincha, to`yga roziligi uchun berdi deb aytadi. Onasiga ishongan Qorajon: «Enam bizni ko`rganli erdan uylantiribdi. Enamning bosh-oyoq sarposini qilib yuboribdi», – degan fikrga boradi.

O`tmishda sovchilikning turli ko`rinishlari bo`lgan. Ulardan biri yaqin qarindoshlarning, bir-biri bilan sinashta odamlarning o`zaro quda bo`lishni rejalashtirib, bolalarini chaqaloqlik yoshidan bir-biriga “atashtirib qo`yish”, “qulog`ini tishlatish”, “beshik kerti qilish”, “etak yirtar qilish” odatidir. Deyarli unutilgan bu qadimiy odat “Alpomish” dostonining Qora baxshi Umirovdan yozib olingan variantida Hakimbek bilan Barchinoyini “etak yirtish” qilib, unashtirib qo`yish motivida kuzatiladi: “Hakimbek bilan Barchinoyning orqa etagini birga ushlab yirtadi, ikkovini “etak yirtish” qilib unashtirib qo`ydi”.⁴⁵

Tadqiqotchi Latifa Xudoyqulova surxon vohasi sovchilik qo`shiqlari va aytimlariga nazar qaratar ekan, hududdagi sovchilik ko`rinishlarini ham aytib o`tadi. U “etak yirtar” shunday odatlardan biri ekanligini ta`kidlab, bu odatga ko`ra Surxon vohasining Denov tumanida qiz bola tug`ilganida kelin qilishni niyat qilgan oila mazkur xonadonga tashrif buyurib, chaqaloqqa kiygizilgan ko`ylakning etagini irim qilib yirtib qo`ygan.

“Etak yirtar”, “beshik kerti” qilingan qizcha voyaga etganida uning etagini yirtgan yoki beshigini kertgan oila tomonidan “el belgisi” deb nomlangan marosim o`tkazilgan. Buning uchun oilaning yaqin qarindosh-urug`lari va mahalla

⁴⁵ Муродов М., Ҳақимов Н., Эргашев А. Қадриятнома. 1-китоб. – Т.: Мехнат, 2001. – Б.35-36.

oqsoqollari ishtirokida qizning uyiga biror jonliq, ko`pincha qo`chqor olib kelib so`yganlar va fotiha o`qiganlar shundan so`ng bu qiz “belgili” hisoblangan va uning uyiga boshqa xonadondan sovchi qo`yilmagan.⁴⁶

Dostonda Qorajonning Alpomish nomidan Barchin huzuriga sovchi bo`lib kelishi motivi ham berilgan. Barchin sovchilik an`analariga binoan, o`z roziligini izhor etish uchun “Qorajonni mehmon qila boshlaydi. Ostiga libos tashlaydi”.

Yigit tomondan kelgan sovchilarga qiz tomon rozi bo`ib, sarpo kiydirib jo`natgach, kuyov tomondan qizga “oqlik” keltiriladi va “non sindirish”, “ro`mol berish” yoki “oq ro`mol o`rash”, “fotiha qilish”, “qalin kesish” kabi odatlar amalga oshiriladi. Ko`rinadiki, bularning barchasida ma`lum bir kiyim turlari “rozilik ramzi” sifatida xizmat ko`rsatadi.

Shundan so`ng qiz o`sha yigitga unashtirilgan hisoblanib, “boshi bog`liq” deb ataladi. Hech kimga unashtirilmagan bo`y qizlarga nisbatan esa “boshi ochiq” yoki “boshi bo`sh” iboralari ishlatiladi.

“Alpomish” dostonida Qorajon va Alpomishning qallicqa borishi tasvirlanar ekan, Qorajonning o`zbeklarga xos bu odatni bilmagani uchun uning tartib-qoidalarini buzib, xijolatga qolishi aks ettiriladi. To`g`ri, u bu haqda ko`pni ko`rgan, uylangan mahramlaridan so`rab-surishtiradi. Ular esa: “Hayit – arafada o`zbekning kuyovini ko`rar edik. Shiydam bo`lib yurar edi. Salla o`rab, kiyinib turar edi. Xotinlar kuyov, deb bir nimasini olar edi, haytovur o`zbekning kuyovi shunday bo`lar edi”, – deya izoh beradilar. Ko`rinadiki, ular Qorajonga o`zbek kuyovlarining hayitda yasanib-tusanishlari haqida ma`lumot berayotirlar. Bu so`zni eshitib, Qorajon: “Esa o`zbaki rasm qilayik”, deb telpakni tashlab, yangi liboslar kiyib, boshiga salla o`rab, to`qson botmon temirdan sovut kiyib, otga minib, o`n uch mahramini birga olib, qallicqa jo`naydi. Aslida yigitning qallicqa borishidan kelin yangasi xabardor etiladi. Shunga qarab yanga uni kutib oladi va qiz bilan uchrashtiradi. Biroq Qorajon qallicqa taklif qilinmagan edi. Shuning uchun u be`etibor qolib ketadi. Unga hech kim ahamiyat bermaydi. Qorajon: “Yangamiz

⁴⁶ Худойкулова Л. Сурхон воҳаси совчилик кўшиқлари ва айтимлари. / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Таникли фольклоршунос олим, профессор О.Сафаров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. 2-китоб. – Т.: Фан, 2010. – Б.156.

ko`rmay qoldi. Mazmuni qizlar bexabar bo`ldi”, – deb ko`p aylanib yuradi. Ko`rganga kulgi bo`ladi. Buning bosh sababi shuki, “qalliqqa borish” yashirin tarzda, qorong`i paytda, el ko`ziga tushmasdan amalga oshirilgan. Qorajon esa bu ishga kuppа-kunduzi, ochiq-oshkora, el ko`zicha kirishgani, boz ustiga yasan-tusan qilib e`tiborni tortgani sabab xijolatga qoladi.

Dostonda Barchinoyning kelin qilib Qalmoqdan Boysunga uzatilishi voqeasi tasvirlanar ekan, bunda yana bir o`zbekona urflarimizdan biri – “Erga ko`rsatdi” rasmi nomi tilga olingan. Unga ko`ra, kelinning otasi bir qo`yni so`yib, kuyovni chaqirib, ziyofat bergan, unga va yaqinlariga sarpolar ulashgan. So`ngra yo`lga otlangan kelin-kuyovlarga ota “oq fotiha” bergan. Dostonda Boysarining Barchinni uzatayotgandagi so`zi, ota sifatidagi olqishi shunday berilgan:

“Alpomish” dostonida xotin-xalajning dasturxon-sachiq ko`tarib, yasan-tusan qilib to`yga borishi tasviri ham keltirilgan. Xotin-xalajlar to`yga, odatda, gulday yasanib, qirmizi kiyimlarda borishgan. Xususan, Surxondaryo vohasida qizil rangli liboslar, odatda, to`y libosi sifatida qaralgan. Buning ta`kidi “Alpomish” dostonida ham uchraydi:

Kiygani gulgun qirmizday,
Ko`zi cho`lpon yulduzday,
Boysundi xotin-qizlari,
Biznikiga qolmay to`yga.⁴⁷

O`zbek udumi bo`yicha, to`yga borishning o`z tartib-qoidalari shakllangan. To`yga borish uchun xotin-xalaj pishir-tushir qilib alohida tayyorgarlik ko`rishgan. O`zbekona shu udum mazmuni “Alpomish” dostonida Qultoy kiyimidagi Alpomishga hamroh bo`lib to`yga borayotgan ayollar obraziga singdirilgan.

Xalqimiz udumi bo`yicha to`yga to`yona bilan borish, to`yga yasanib borish odatlari hozirgacha amal qiladi. Bu haqda “To`yga borsang, to`yib bor, Eski to`ningni qo`yib bor”, “To`yga to`yona bilan bor” kabi xalq maqollari ham mavjud.

⁴⁷ Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. – Т.: Шарқ, 1998. – Б.370.

Afandi haqidagi latifalardan birida aytilishicha, Afandi to`yga eski to`nda borgan ekan, hech kim unga e`tibor bermabdi. Qimmatbaho kiyingan zotlar to`rga o`tqazilib, osh-ovqatning boshi ularga tortilibdi-yu, eski kiyimda, poygakda o`tirgan Afandi e`tiborsiz qoldirilibdi. Afandi uyiga to`ydan och-nahor qaytibdi. Boshqa safar Afandi ham to`yga kimxob choponlar bilan boribdi. Hammaning e`tibori unga qaratilibdi. Noz-ne`matlarni oldiga uyib tashlabdilar. Shunda Afandi to`niga qarab: “Ol, to`nim, bu shirin-shakar taomlar senga, e”, – degan ekan.

Bu latifada Afandining to`yga borish qoidalarini buzgani sabab kamsitishga duch kelgani tasvirlanmoqda.

Rost, ba`zilar to`yda kishilarning jamiyatda, odamlar orasida tutgan mavqeiga, kiygan kiyimiga qarab muomala qiladi. Yuqoridagi latifada shu holat satirik kulgi ostiga olimoqda. Afandi to`yxonada juldur kiyingani uchun poygakka o`tirtirilganini sezgach, ranjiydi. Keyingi safar qimmatbaho kiyinib borib, peshkadan joy olib, laganbardorlarni xijolat qiladi.

“Alpomish” dostonida Yartiboy ismli oqsoqolning befarosatligi sabab to`ylarda mana shunday behurmat qilinishi tasvirlangan. Dostonda u haqda: “Majlisli kun (to`y yo biror yig`in demoqchi – S.Sh.) bo`lsa, to`rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo`sag`aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo`lib, poyga betda yotar edi”, – deyiladi.

Liboslarning ritual-magik xususiyatlarining bora-bora estetik ahamiyati kuchayib, lirik qahramonning kechinmalarini ifodalashga xizmat qilgan. Qo`shiqalarda ko`ylak kiyish maylni, maftun qilishni ifodalab, libosda bu istakni amalga oshiruvchi magik kuch bor deb, bilinadi:

Burama ko`ylak kiyadi,

Etagi erga tiyadi.

Shu zamonning qizlari

Tanlab erga tiyadi.

Burama ko`ylak kiyishdan maqsad bor, ya`ni bunday libosdagi qizlar duch kelganga tegib ketishi mumkin emas va burama ko`ylakning magik ta`siriga

ishonch bor. Kuzatishlar o`tmishda ayollar kiyinishlari bilan ham qiz, juvon yoki beva ekanligini bildirib yurganligini ko`rsatadi.

Yor-yorlarda “oq ko`ylak”, “oq paranji” kabi sifatlovchili birikmalar juda ko`p qo`llanadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki yor-yorlar nikoh to`yi marosimi qo`shiqlari bo`lib, odatda, egniga oppoq libos kiyib, oq paranjida ota-ona uyini tark etib, bo`lajak umr yo`ldoshi huzuriga otlangan qizga qarata kuylanadi. Uzatilayotgan qiz ota-onasidan rozilik tilab, ularning tizzasiga bosh qo`yadi. Bu an`anaviy udum hozirgacha saqlanib kelayotir. Shu sababli yor-yorlarda uchraydigan “oq ko`ylak”, “oq paranji” kabi sifatlovchili birikmalar marosimiy mazmun-mohiyatga egaligi bilan e`tiborni tortadi. Qolaversa, ularning qo`llanilishi bevosita xalqning oq rangni muqaddaslashtirishi, uni poklik, ulug`vorlik ma`nosida tushunishi bilan bog`liq.

“Oq ko`ylak” birikmasi baxt ko`ylagi tushunchasini ifodalaydi. Bu birikmada oq rang sifatlovchisi poklik, bokiralik ramzida tushuniladi. Zero, oq libos bir olamdan ikkinchi bir olamga o`tish vositasi sifatida qaralib, ilohiylashtirilishi sabab bo`ladi. Shu asosda oq rangning ham baxt, ham baxtsizlik lahzalarida qo`llanib kelishi kuzatiladi.

Buxoroning Olot va Qorko`l tumanlarida nikoh to`yining “Joy yig`di” uzvida kelinchakka **lachak** kiydiriladi. Bu “Lachakbandon”, ya`ni “Lachak bog`lash” deb yuritiladi. Buxoro shahri va unga yaqin tumanlarda esa bu marosim “Sallabandon” – “Salla o`rash” deb nomlanadi hamda «Beshik to`yi» marosimining oxirida qiz endi «Haqiqiy ayol, ona, xotin, alohida bir ro`zg`orning bekasi» bo`lganligiga ishora sifatida «boshi bog`liq ayol» degan ma`noda o`tkaziladi. «Sallabandon» qilingandan so`ng kelinchaklar katta ayollar bilan bir qatorda o`z mahallalarida bo`ladigan barcha to`y va motam marosimlarida doimiy, teng ishtirok etishlari lozim sanalgan. Shungacha ularning ishtiroki erkin bo`lgan. Biroq «Sallabandon»dan so`ng to`y-ma`rakalarga qatnashmaslik uyat hisoblangan.

Xullas, kiyim-kechaklar marosimiy funksiya kasb etishi hozirgi to`y va aza marosimlari orqali ham tasdiqlanadi. Marosim turini ularda qatnashuvchilarning kiygan liboslariga qarab ham farqlash mumkin. Masalan, xatna qilinadigan

bolakay yoki marhumning yaqin kishilari kiyimlari bilan boshqalardan alohida ajralib turadi.

II.3. Aza marosimi qo`shiqalarida motam kiyimlarining tasviri va talqini

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da oq rang, asosan, yorug`lik va ezgulik timsoli sifatida ko`rsatilgan. Ammo qadimgi turkiy xalqlarda oq rangning motamni, musibat va g`am-anduhni, qurg`oqchilikni anglatib kelganligi haqida ma`lumotlar bor. Jumladan, ozarbayjon olimi M.Saidovning yozishicha, “...Oltoyliklarda oq rang motam ramzidir. Manbalar Chinda yashagan turk tilli solorlar uchun oq rangning boshqa ma`nolar bilan bir qatorda motam timsoli bo`lganligidan ham xabar beradi. Nafaqat turkiylarda, boshqa ayrim xalqlarda ham ko`k va oq motam, qayg`u ramzi sanalgan”.⁴⁸ Shuningdek, qadimda oq rangning salbiy ma`no anglatib kelgani haqida ko`p manbalarda qaydlar uchraydi. Jumladan, “Svetovedeniya”da “G`arb tomon – oq rang bilan belgilangan. G`arb esa o`lim va g`am – anduh vatani. Shuning uchun Xitoy va Yaponiyada oq rang motam va o`lim rangi hisoblanadi”,⁴⁹ – deyilgan. Jumladan, o`zbek xalq motam marosimida ham oq rang o`lim va yo`qlik olamining timsoli, azadorlik, azadorlik belgisi sifatida talqin qilinganligi kuzatiladi.⁵⁰

Olima M.Yoqubbekova “O`zbek xalq qo`shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida oq rangning ijobiy emotsional xususiyatlarini ko`rsatsa-da, uning salbiy emotsional xususiyatlariga e`tibor bermaydi. U: “Xalq qo`shiqlarida oq, qizil rang sifatlashlari ko`tarinki kayfiyat, ijobiy emotsional-ekspressiv bo`yoqdorlik ifoda etsa, ko`k bilan qora o`rni bilan ijobiy, o`rni bilan salbiy munosabat tug`diradi. Xalq qo`shiqlarida oq sifatlashi

⁴⁸ Саидов М. Озарбайжон мифик тафаккурининг кайноклари. – Баку: Ёзувчи, 1983. – 328 б.

⁴⁹ Миронова Л. Цветоведение. – Минск, 1984. – С.90.

⁵⁰ Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120-б.

bilan ijobiy kayfiyat hosil qilinishiga juda ko`p misollar mavjud”,⁵¹ – deb yozadi. Holbuki, xalq qo`shiqlarida oq rang vositasidagi sifatlashlar ham qora rang kabi o`rni bilan ijobiy, o`rni bilan salbiy munosabat tug`dirishi keng kuzatiladi:

Oqni solding boshimga,

Qorani solding oshimga.

Zarafshon vohasida yashovchi aholi o`rtasida marhumlarga oq kiyim kiyib aza ochish o`ziga xos an`ana tusiga kirgan. Bu erlarda oq, ko`k kiyish azadorlikning belgisi hisoblanadi. Demak, aslida arablarga xos bunday an`analar bizgacha etib kelgan va motam marosimlarimizda o`z izini qoldirgan. Zarafshon vohasi aholisi o`rtasida motamda, odatda, azador ayollar hamda azaga kelgan xotin-xalaj oq bog`lashadi. Bu esa, oq rangning Sharq xalqlarida motamsarolik ma`nosida kelishining isbotidir. Lekin Farg`ona vodiysida qora kiyim motam libosi hisoblanadi. Shuning uchun Farg`ona vodiysidan yozib olingan qo`shiqlarda bunga urg`u kuchli:

Qora lasdan ko`ylagim,

*Qonlarga to`ldi yuragim.*⁵²

Yoki:

Qora ro`mol qo`limda,

*Qarorim yo`q yo`lingda.*⁵³

Bu qo`shiqlardagi “qora ro`mol qo`limda”, “qora lasdan ko`ylagim” satrlarida lirik g`ahramon o`zining motamsaroligini, g`am-anduhga botganligini, ayriliq va judolikdan azob chekayotganligini, qayg`u-musibatdan hasratini oq va qora rangli matolardan tayyorlangan kiyim-kechaklar, bosh kiyimlar obrazi orqali aniq ifoda etmoqda.

Ma`lumki, nikoh to`yiga aloqador sovchilik udumlarimizda qiz tomon kuyov tomonga o`z roziligini oq ro`mol berish orqali ramzan bildiradi. Shuning uchun

⁵¹ Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: филол. фанлари доктори...дисс. автореф. – Т., 2005.

¹²¹ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: ЎзР ФА нашриёти, 1059. – 311- б.

⁵² Оқ олма, кизил олма. . Ўзбек халқ кўшиқлари. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.110.

⁵³ Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров, Д.Ўраева. Бухоро: “Бухоро”, 2004. – Б.54.

ro`molga oq rang sifatlovchi bo`lib kelsa, baxt ramzini ifodalashga xizmat qiladi. Biroq qora va sariq ranglar ro`molga epitet bo`lib kelsa, ayriliq va judolik, hijron, g`am-anduh ramzini ifodalaydi.

O`zbek motam marosimining juda ko`p rasm-rusumlarida ranglarga aloqador ramziyliklarga alohida e`tibor qaratiladi. Oq rang dunyoning ko`plab xalqlarida motam rangi hisoblanadi. Ma`lumki, xalqimiz udumi bo`yicha motam marosimida marhumlar oq surpdan tayyorlangan kafanga o`rab dafn qilinadi. Shu boisdan kafan – oxirat to`ni xalq motam qo`shiqlarida shunday ifoda etiladi:

*Oq buklamdan senga ko`ylak tikildi,
Buni ko`rib maning bo`ynim bukildi.
Etti qumg`on suvlar senga to`kildi,
Man yig`lamay endi kimlar yig`lasin?*⁵⁴

Shuningdek, mayit solingan tobut ustiga marhum agar yosh bo`lsa – qizil baxmalidan, o`rta yoshli bo`lsa – ko`k yoki to`q yashil matodan, keksa bo`lsa – oq so`zani (yopqich) yopiladi. Bunda qizil rang – yoshlik, guldek yashnaganlik davrini, oq rang – soch-soqol oqarishi kabi keksalik alomatini ifoda etadi. Sariq rang go`yo marhumning qayta tirilishini cheklaydi. Natijada uning orqasida qolganlarning rangi sarg`ayib qoladi.⁵⁵

Motam marosimida ayollar oq, ko`k yoki qora rangdagi matolardan tikilgan kiyimlar kiyib, o`z azadorligini bildiradi. Bunda aza kiyimlarining rangi orqali o`lim, motam, qayg`u-musibat yuz berganligi ifoda etiladi. Folklorshunos olim D.O`rayeva ta`kidlaganidek, bu ranglar yig`i va yo`qlovlarda keng qo`llanib, o`ziga xos ramziy ma`nolarni tashiydi:

*To`ychivoyning bog`ida
O`sma buralib qoldi.
Onasini so`rasang,
Ko`kka o`ralib qoldi.*

⁵⁴ Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро: “Бухоро”, 2004. – Б. 22.

⁵⁵ Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004.

“Ko`kka o`ralish”, ya’ni ko`m-ko`k kiyish azadorlikni anglatadi. Azador ayollar o`ziga oro bermasdan yuradi. Shuning uchun qo`shiqda bog`dagi o`smaning o`z vaqtida olib ishlatilmaganligi sabab buralib qolganligi alohida ta’kidlanayotir.

Qora lasdan kuylagim,
Qonlarga to`ldi yuragim.
Sariq lasdan kuylagim,
Sarg`aydi rangu ro`ylarim.⁵⁶

Qo`shiqda o`lim tufayli boshiga ayriliq va hijron dardi, qayg`u-alam tushgan lirik qahramonning ruhiy holati o`z ifodasini topgan. Unda qora ko`ylak timsoli – motamsarolik, sariq ko`ylak esa dardchillik holatini aks ettirishga xizmat qilayotir.

D.O`rayeva: “Azador ayol motam davrida rangli kiyimlar kiysa, el ichida uyatga qoladi. Ayniqsa, u kiyim-boshida qizil rang bo`lmasligiga jiddiy e`tibor beradi. Chunki qizil rang ruhning jismdan ajralishini ramziy ifoda etadi”, – deb yozadi.⁵⁷

Suv va osmon marhumlar ruhi qo`nim topadigan manzillardan deb qaralishi tufayli ularning tusini belgilovchi ko`k rang ham motam marosimida azadorlik ramzini ifodalovchi ranglardan sanaladi.

Buxoro viloyatining Peshko`, Romitan, Shofirkon tumanlarida oila boshlig`i – ota vafot etsa, to`ng`ich o`g`il boshiga, albatta, oq salla o`raydi. Bu bilan u ota merosini, ishlarini boshiga (zimmasiga) olganligini ramziy ifoda etadi.

Xullas, motam bilan bog`liq “aza kiyish” va “aza echish” rasm-rusumlarida ranglarning ma`nosiga alohida e`tibor qilinadi. “Aza kiyish” rasmi kabi “aza echish” rusumi ham maxsus tashkil qilinadi. Bu rasm-rusumlar, odatda, motamga aloqador “Qirq” va “Yil” marosimlari ichida bajariladi. “Aza echish”da ayollar oq, ko`k, qora rangdagi liboslarini va ro`mollarini echib tashlab, motam tutishni to`xtatganliklarini ma`lum qilishadi. Aza kiyimlari echilgach, o`rniga xursandchilikni, tinchlik va xotirjamlikni ifoda etadigan qizil yoki oq rangdagi

⁵⁶ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: ЎзР ФА нашриёти, 1959. – Б.213.

⁵⁷ Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – Б. 120.

liboslar kiyiladi hamda shu rangdagi ro`mollar o`raladi. Shu boisdan bu ritual ramziy xatti-harakatlar xalq orasida “Qizil kiydi” yoki “Oq kiydi” (“Oq solar”) deb nomlanadi.⁵⁸

Epik an’anada, shu jumladan, motam marosimi va unga aloqador folklor aytimlarida oq rang, asosan, marhumlar rangi, o`lim va yo`qlik olamining timsoli sifatida qayd etiladi.⁵⁹ Jahannam va jon oluvchi farishta Azroil esa qora tusda tasavvur qilinadi:

*Qora otli, qora to`nli,
Meni ko`rmakka keldingmi, alla-yo alla.
Ochilgan lolazorimni,
Xazon etmoqqa keldingmi, alla-yo alla.⁶⁰*

Marhumlar dunyosi, o`liklar saltanati ba’zida qora rangda ham tasavvur qilingan.

Folklorshunos D.O`rayevaning ma’lumot berishicha, Buxoroda haqiqiy ayollik, onalik ramzini ifodalovchi «Sallabandon» marosimi ota-onasi, yoru birodarlari, qarindosh-urug`lari, tanish-bilishlari qalbiga chuqur armon solib bevaqt vafot etgan, orzu-umidlari bilan birga so`lgan qizlar uchun ham bu dunyodan bearmon ketsin, ruhi bezovta bo`lmasin, bizdan rozi bo`lsin degan ma’noda o`tkazilgan. Chunki xalq hamisha ruhning o`lmasligiga, abadiyligiga ishonadi.⁶¹

«Sallabandon» marosimi bilan bog`liq rasm-rusumlarni ular mazmuniga muvofiq keladigan qo`shiqlar orqali maxsus go`yanda (motam marosimi qo`shiqlarining professional ijrochisi) aytib-aytib bajarib boradi.

«Sallabandon» marosimida avval qizning sochlari yoyilib, boshiga **kultapo`shak** kiydiriladi. Kultapo`shak ayol kishining sochini peshonadan to elkagacha yopib, begona ko`zdan yashirib saqlaydi. Kultapo`shak bir-biriga ulab tikilgan ikki qismdan iborat bo`lib, uning boshga kiyiladigan yuqori qismi aylana

⁵⁸ Qarang: Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004.

⁵⁹ Qarang: Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004.

⁶⁰ Аллаё алла. Тўплаб, нашрга тайёрловчи О.Сафаров. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – Б.145-158.

⁶¹ Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – Б.120.

shaklidagi do`ppi misoli-yu soch kiydirib qo`yiladigan pastki qismi tor, kalta eng shaklidir.

Kultapo`shakning avval sochga kiydiriladigan qismi, so`ngra bosh qismi kiyiladi. Kultapo`shakning ustidan bir yarim metr uzunlikdagi dokadan salla o`raladi.

Motam marosimi o`tkaziladigan «Sallabandon»da ham yor-yorlar aytiladi va ularda, asosan, salla bog`lab, onalik gashtini surish, farzand o`stirish kabi qiz bola uchun eng muhim bo`lgan holatning yuz bermaganligidan achinish, kuyunish motivlari etakchilik qiladi:

Salla-salla boshniki, voy bolam-ey, yor-yor

Ko`rmay ketdi, boshingni, jon bolam-ey, yor-yor.

Tosh emaskan boshginang, erta ketding, yor-yor,

Sallaginang bog`lanmay xazon bo`lding, yor-yor.⁶²

Go`yanda marhuma qizga to salla o`ragunicha bu yor-yor matnini qizning onasi yoxud amma-xolalari ham takrorlab turadilar. «Sallabandon» qilish marosimi tugagach, qizning ustiga uning kelinligi uchun atab yig`ilgan sepidan ro`mollar va matolar olib tashlab ko`yiladi va quyidagi yor-yor aytiladi:

Yiqqanlarim poya bo`ldi-ya, yor-yor,

Mehnatlarim zoya bo`ldi-ya, yor-yor.⁶³

Bunday marosimlarning kelib chiqishiga ibtidoiy insonlarning o`liklar mulki, ruhlar olami, o`limdan so`ng qayta tug`ilish, ruhning boqiyliги haqidagi mifologik tasavvurlari asos bo`lgan.

Xalq orasida uylanmay, chimildiq ko`rmay vafot etgan yigitlarga u dunyoga armonsiz ketsin degan niyatda motam yor-yori kuylanishi o`ziga xos odat tusini olgan. Bu marosim Buxoroda “Jar” deb yuritiladi. Unda marhum yigitning oshna-og`aynilari, yosh erkak qarindoshlaridan biri uning kiyimini kiyib, belbog`ini bo`yniga tashlab, o`rtada sadr tushadi. Shundan so`ng marhum yigitga “To`n kiydirish” (“Jomapo`shon”) bo`lib o`tadi. Unda marhum yigitga keksa chol yangi

⁶² Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро: Бухоро, 2004. – Б.88.

⁶³ Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро: Бухоро, 2004. – Б.89.

do`ppi va yangi chopon (to`n) kiydiradi. (Chopon ko`pincha marhumga kiygizilmasdan, ustiga tashlab qo`yiladi). Shu yo`l bilan to`y ko`rmay, kuyovlik choponini kiymay, yor bilan visol oqshomiga erishmay, otalik gashtini surolmay armon bilan u dunyoga ketayotgan yigitning ruhi tinchlanishiga ishoniladi.

Marhumlarning abadiy kiyimi – “kafan” deb ataladi. Uni “oxirat to`ni” deb ham aytadilar. Kafanlash marosimini murdasha`y va yuvg`ichlar o`tkazishadi. Kafanni tayyorlash uchun 18-24 metr oq pishiq surp ishlatiladi. Murdasha`y uni to`ppadan-to`g`ri murda ustida keti tugilmagan ip bilan tikadi. Shuning uchun tiriklar ustida kiyim tikish yomon irim qilinadi.

Kafan kiyilmaydi, balki o`raladi. Chunki uning yengi, yoqasi bo`lmaydi. Shu boisdan tirik insonlarning o`z kiyimini kiymay ustiga yopib, yenglarini osiltirib yurishi taqiqlanadi. Keksalar bunday holni ko`rishsa, «barakang uchadi» deb tanbeh berishadi. Qolaversa, o`lik beharakat bo`lgani uchun unga ko`ylak kiydirish qiyin. Shuning uchun murda tanasi kafanga o`rab qo`yiladi va uning maxsus qismlari yog`och igna bilan bir qat ip yordamida tikib, o`zaro birlashtiriladi. Murda kafanlanilayotganida, unga qarata: «Oxirat to`ningiz muborak bo`lsin!» deyiladi. Shuni inobatga olib, motam qo`shiqdarida shunday kuylanadi:

Sizga bir to`n bichgaylar,
Uni yaksona tikkaylar.
Uni turib kiyay desangiz,
Yoqasi, yenglari yo`qdir.⁶⁴

Bu qo`shiqda kafanning bichilishi, tikilishi va tuzilishi haqida aniq tasavvur uyg`otilmoqda.

Kafan ikki chorsi choyshabdan iborat mato ko`rinishida bo`lib, marhumning chap elkasidan o`ng biqiniga tortib o`raladi. Ammo uning ba`zi qismlari alohida nomga ega. Kafanning eng ko`p qismini «ko`ylak» – «kurta» tashkil etadi va u tanani belgacha o`rab turadi. Shundan so`ng o`raladigan to`g`ri burchakli mato bo`lagi ishton o`rnidagi «lungi»dir. Marhumning bosh qismiga o`ralgan kafanlik

⁶⁴ Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро: Бухоро, 2004. – Б.28.

qismi erkaklar uchun «salla», ayollar uchun «ro`mol» deb nomlanadi. Marhumning yuzi mato bilan yopiladi. Marhum qo`llariga qo`lqop, oyog`iga ishkor kiydiriladi. Bu holat motam qo`shiqlarida alohida ta`kidlanadi:

Oyog`imga ishkor kiydirdilar, alla,
Ishkorim tayrilib qoldi, alla.

Marhumalarga peshonaband, ko`krak qismiga sinaband, bo`ynini yopib turishga mo`ljallangan «lachchak» ham kiydiriladi. Xullas, kafan marhum tanasini boshdan-oyoq o`rab turadi.

Ba`zi xalqlarda, jumladan, xristianlarda marhum ritual yuvintirilgach, unga boshdan-oyoq yangi, ohorli liboslar, oyoq kiyimi kiydiriladi. Uni bayram yoki to`ydagidek yasantiradilar.

Yevropa mamlakatlarida hatto maxsus marhumlar kiyimlarini sotadigan do`konlar borligi ma`lum. Ularda sotiladigan kiyimlar bir marta ishlatishga mo`ljallangan bo`lib, tikilish dizayniga ko`ra tananing faqat old, yuz qismini qoplab turadi, xolos. Orqa qismi bo`lmaydi. Chunki ular marhumning tobutga yotqiziladigan holatini hisobga olgan holda tikilgan bo`ladi.

Umuman aytganda, ibtidoiy insonlarning o`limdan so`nggi hayot mavjudligi haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalari marhumlarni ritual kiyintirish odatining kelib chiqishiga, azadorlik liboslarini kiyib yurishga asos bo`lgan.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Insoniyat tarixida chaqaloqni, nikohga kirishayotganlarni, marhumlarni kiyintirish o`ziga xos udumga aylangan. Shu orqali inson mohiyati o`zgarishi ramziy aks ettiriladi. Qayta kiyinish har bir inisial jarayon uchun qonuniyat bo`lgan.

2. Chaqaloqqa chilla ko`ylagi yoki it ko`ylakcha kiydirish xalqimiz orasida o`ziga xos maxsus marosim sifatida o`tkaziladi. Bu jarayonning o`z qo`shiqlari borligi kuzatiladi. Chilla ko`ylak chaqaloqning birinchi ko`ylagi sifatida ritual yig`in-tadbir uyushtirish orqali kiydiriladi.

3. Qadimgi odamlar farzand ko`rgan ayol va uning chaqalog`iga it timsolidagi homiy rahnamolik qiladi deb o`ylab, chaqaloqqa it ko`ylakcha kiydirishgan.

4. Buxoroda muchal yoshidagi bolalarga muchal kiyimini kiydirish an`anasi saqlanib qolgan. Uning ildizlari zardushtiylarning qadimgi sidrapo`shlik marosimiga borib taqalishi kuzatiladi.

5. Nikoh to`yi bilan bog`liq “oqlik berish”, “non sindirish”, “ro`mol berish” yoki “oq ro`mol o`rash”, “fotiha qilish”, “qalin kesish” kabi odatlarda bevosita xalqimizning kiyim-kechaklar bilan bog`liq e`tiqodiy qarashlari namoyon bo`ladi.

6. Kiyim-kechaklarning marosimiy funktsiya kasb etishi hozirgi to`y va aza marosimlari orqali tasdiqlanadi. Marosim turini ularda qatnashuvchilarning kiygan liboslariga qarab ham farqlash mumkin.

7. Motam marosimida ayollar oq, ko`k yoki qora rangdagi matolardan tikilgan kiyimlar kiyib, o`z azadorligini ramziy ifoda etishadi. Bunda aza kiyimlarining rangi orqali motamsarolik, qayg`u-musibat holati aks ettiriladi. Xususan, yig`i va yo`qlovlarda bu yorqin kuzatiladi. Motam bilan bog`liq “aza kiyish” va “aza echish” rasm-rusumlarida kiyim ranglariga alohida e`tibor qilinadi.

8. Liboslarning ritual-magik xususiyatlarining bora-bora estetik ahamiyati kuchayib, qo`shiqalarda kiyim-kechaklar obrazining paydo bo`lishiga asos yaratgan.

III BOB

XALQ QO`SHIQLARIDA KIYIM-KECHAK OBRAZLARINING TURLARI VA BADIYY TALQINI

III. 1. Bosh kiyimlarining xalq qo`shiqlarida obrazlantirilishi

Insonning kiyinish ehtiyojini o`tovchi buyumlar majmuining umumiy nomi o`zbek adabiy tilida kiyim, kiyim-kechak nomi bilan ifodalanadi. Kiyim inson tanasining qaysi qismiga kiyilishiga ko`ra bosh kiyim, ust(ki) kiyim, ich(ki) kiyim, oyoq kiyim, kiyimlarga yordamchi buyumlar va kiyim qismlari kabi guruhlarga ajratiladi. Ayni paytda bosh kiyimlarining o`zi ham ikki qismga ajratiladi: boshga kiyiladigan kiyimlar va boshga o`raladigan kiyimlar.

Kiyim-kechaklarning bunday tasniflanishini M.Asomiddinova o`zining shu sohada olib borgan tadqiqot ishida ham ko`rsatib o`tgan.

Xalq og`zaki ijodida asosiy janrlardan biri hisoblangan qo`shiqlar xalq turmushini, axloq normalarini o`ziga xos san`at bilan aks ettiradi. Qo`shiqlarda aks etayotgan liboslar, ularda mujassamlashgan ramzlar va kiyimlar sehri xalq uchun juda ham katta ahamiyatga ega bo`lgan. Ma`lumki, o`zbek xalq qo`shiqlarida qalpoq, ro`mol, doka ro`mol, telpak, salla va boshqa bosh kiyim nomlari ko`p uchraydi. Ular, avvalo, an`anaviyligi bilan diqqatni tortsa, ikkinchidan, turg`un ramziy obraz sifatida kelishi tufayli e`tiborni jalb etadi. Qo`shiqlarda ramziy obraz darajasiga ko`tarilgan bu kiyim turlari turfa ma`nolar ifodalab kelishi kuzatiladi.

Shuningdek, bu timsoliy kiyim-kechaklar obrazining rang vositasida farqlanib kelishi ham ko`zga tashlanadi. Ramziy poetik birikmalar ko`rinishida ifodalanib keladigan oq ro`mol, oq telpak, qora telpak, oq qalpoq, qizil ro`mol, sariq ro`mol va hokazolarning aksariyati oilaviy-maishiy marosimlarga tegishli ritual liboslar ekanligi bilan diqqatni tortadi va ular insonning bir umr bosqichidan ikkinchisiga o`tishini yoki turli ruhiy vaziyatdagi holatini bildirib keladi.

Timsoliy bosh kiyimlarning rang vositasida farqlanishini bildirib keladigan oq ro`mol, oq telpak, qora telpak, oq qalpoq, qizil ro`mol, sariq ro`mol va hokazo kabi ramziy poetik birikmalarning aksariyati oilaviy-maishiy marosimlarga tegishli ritual predmetlar ekanligi bilan diqqatni tortadi.

Eramizdan avvalgi II minginchi yillarda kishilarning kiyimi rangiga qarab, ularni tabaqaga ajratish urfga aylangan. Aytaylik, Xitoy xalq og`zaki ijodining qadimgi qo`shiqlar to`plami “Shi szik” (Qo`shiq kitobi)da aytilishicha, eng yaxshi rang – qizil bo`lib, u hukmdorlarga xos rang hisoblangan. Qora va sariq ranglar oddiy xalq uchun xos bo`lib, ularning kiyinish madaniyatida shu e`tiqod asosiy o`rin tutgan. Shuningdek, bu holni qadimgi o`zbek xalqi madaniyatida ham kuzatish mumkin.

Kontagioz (aloqa, munosabat) magiya tamoyiliga ko`ra soch va uning analoglariga xos magik xususiyalar ular bilan munosabatda bo`lgan bosh kiyimlariga ham ko`chadi.

A.Musaqulov ta`kidlab o`tganidek, o`zbek do`ppilari turli irimlar, magik maqsadlar bilan tikilib, tarixan osmon va ruhlar dunyosi bilan bog`lanadi. Shuning uchun xalq topishmoqlarida do`ppi haqida “Otdim osmonga chiqdi” deya ishora beriladi.

O`tmishda bosh kiyimlari kishilarni jinsi, ijtimoiy mavqei, yoshi etnik va nihoyat milliy jihatdan farqlagan. Do`ppi hozirgacha o`zbek xalqining milliy ramzi bo`lib kelmoqda. Mutaxassislar fikricha, o`zbek do`pilari osmon, undagi to`rt gul to`rt tomon g`oyasini ifodalaydi. Qadimgi turkiylar dunyoni to`rt tomonli, to`rt burchakli deb tassavur qilganlar. Xalqning qadim inonchlaridagi chiltonlarning chortani (to`rttasi) dunyoning to`rt tomoniga hukmronlik qilishgan.

Xotin-qizlarning ro`mollari, umuman, bosh kiyimlari osmon g`oyasi orqali hosildorlik va serfarzandlik tushunchalari bilan bog`lanadi. Jumladan, do`ppining gullari magik mohiyat kasb etgan. Inson kiyimlarining qadimda magik ahamiyat kasb etganligi bosh kiyimidan to oyoqdagi poyafzalgacha xosdir. Shuningdek,

ro`molning osmon g`oyasi tufayli keyincha bosh butun tana, inson taqdirini belgilaganligi xalq qo`shiqlarida o`z badiiy ifodasini topgan:

Ro`molim bor, ro`molim bor,
Ro`molimda tumorim bor,
Bir ko`rishga xumorim bor,
Dod, alimdan ketdi ro`mol.⁶⁵

Ro`molning qo`ldan ketishi qiz bola erkidan, nomusidan ayrilishi ramzidir. Ro`moldagi tumor esa magik himoya vositasi. An`anaga ko`ra, qiz bolaning nomusidan ayrilishi o`limga tengdir. Xalq she`riyatida ro`mol poetik obrazi turli badiiy-estetik vazifalarni bajarib, lirik qahramonning qalb kechinmalari, ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi.

Yana bir taniqli folklorshunos Shomirza Turdimov xalq she`riyatida ro`molning oila ramzi bo`lib kelishini ta`kidlaydi. Ro`mol poetik obrazi qanday vazifalarni bajarmasin, tarixiy asosi soch, bosh va ular orqali osmon g`oyasi bilan bog`lanadi. O`zbeklarda yaqin-yaqinlargacha bolalarni yoshligidan unashirib qo`yishganda yigit tomon qizga ro`mol o`ratib ketar edi. Hozir ham sovchilar kelib, qiz tomon roziligi olingach, kuyov yuboradigan sovga-hayitliklar orasida ro`mol bo`lishi shart hisoblanadi. Bu etnografik detal ildizining juda qadimiyligi “Alpomish” dostoni misolida ham ko`rinadi.

Nazar solib o`zbeklarni ko`rayin,
O`zbeklarning yaxshi qizi bor bo`lsa,
Boshi bo`shmi, deyin, avval so`rayin,
Yaxshi qizi agar boshi bo`sh bo`lsa,
Qalin qilib biror ro`mol o`rayin, – deydi.⁶⁶

Dostonda bu parcha Barchinga borayotgan Surxayil kampir tomonidan uning qarshisidan chiqqan Qorajonga qarata aytilgan.

Mavlonboyning do`ppisi,
Devor tagida qoldi.

⁶⁵ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: ЎЗР ФА нашриёти, 1959. – Б.212.

⁶⁶ Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи. – Т.: Шарқ, 1998. – Б.34.

Mavlonboyning o`ligi,

O`rda tagida qoldi.

Agar Mavlonboyning o`lgani aytilmaganda ham xalq tushunchalari, irimidan xabardor kishi dastlabki ikki satrdanoq bu ma`noni anglab olgan bo`lar edi. Chunki do`ppining devor tagida qolishi kontagioz magiya nuqtai nazaridan uning egasi tuproq tagida qolishi, ya`ni ko`milishi bilan baravardir. Bundan tashqari xalq devorning o`z-o`zidan yoki tushda qulashini doimo falokatga ta`bir qiladi.

Xalqimiz udumlari bo`yicha azalda bayram, marosimlar payti va jamoat joylarida bosh kiyimda yurish shart bo`lgan. Bu udum hozirda, asosan, motam marosimlarida saqlanib qolgan. Odatda, motam marosimiga hech kim boshyalang bormaydi.

O`rta Osiyoda xotin-qizlarning ro`mollari rangi, holati ularning yoshi, oiladagi o`rniga qarab o`zgartirib borilgan. Har bir o`zgarish maxsus marosim bilan nishonlangan. Ayollar turmush qurganda, farzand ko`rganda, yana o`g`lini sunnat qilganda bosh kiyimlari soni ortib boravergan.

Xalq qo`shiqlari orqali kiyimlarning xom-ashyosiga ko`ra ham nomlangani bilib olish mumkin:

Ipak ro`mol boshimda hilpillaydi,

May ichganda yuragim qilpillaydi.

Olib ber deb opamga aytolmayman,

Til tagida ko`makay bikillaydi.

Ipak ro`mol ipak matodan tayyorlangan bo`ladi. U g`ajimlar chiqarilgan ro`mol turi hisoblanadi.

Xalq qo`shiqlarida qora va sariq ro`mol obrazlari oq ro`mol obraziga zid ma`noda ishlatiladi. Bunda ro`mol tushunchasi o`ziga xos “bosh kiyimi” ma`nosini saqlaydi. Faqat uning rangi bilan bog`liq ma`nosi o`zgaradi. Chunki xalq orasida qora rang g`am-anduh, sariq rang ayriliq, hijron tushunchalarida ramziy ma`no kasb etadi. Bu zardushtiylik e`tiqodidan buyon davom etayotgan bo`lib, qo`shiqlarda ham shu ramziylik asos sifatida xizmat qiladi.

Sag`irboyning shu kelini mard ekan,

Er bosgan xotindan hunarband ekan,
Sag`ira tushibdi qizlarning shohi,
Aqlim oldi *boshidagi qubbasi*.

Qubba – boshga kiyiladigan kiyim turlaridan biri.

Xalqimiz madaniyatida do`ppido`zlik san`at darajasiga ko`tarilgan milliy hunarmandchilik turlaridan birini tashkil qiladi. Bu kasb bilan, asosan, ayollar uy sharoitida shug`ullanib kelishgan. O`tmishda ayollar shu kasb bilan tirikchilik o`tkazib, ro`zg`or ham boqishgan. Shu haqdagi kechinmalarini hatto qo`shiqlarda ham ifodalab kelishgan:

Teragdi shoxida bir jo`ra akka,
Qalandar yotibdi zindonda yakka.
Qalandar xotini do`ppi bichadi,
Qalandar o`ldi deb xatga bitadi.

Xalq do`ppido`zlik qo`shiqlari do`ppido`zlik amaliy hunari bilan birga paydo bo`lib, rivojlanib borgan. Ular xalq mehnat qo`shiqlarining bir turi bo`lib, hunarmandchilik bilan bog`liq xalq qo`shiqlari qatoridan o`rin tutgan.

Do`ppi tiksang childirma,
Cho`pu xasga ildirma.
Yurtingni chindan sevsang,
Dushmaningga bildirma.

Bu qo`shiq orqali, avvalo, do`ppining bir necha turlari borligini, “childirma do`ppi” esa ulardan biri ekanligini anglash mumkin. Qo`shiq mazmunidan esa xalqning bosh kiyimlariga e`tiqodiy munosabatda bo`lib kelganligi tushuniladi. Darhaqiqat, xalq bosh kiyimiga hamisha davlat ramzi sifatida qaragan. Odamning bosh kiyimiga qarab uning qaysi mavqega egaligini, jamiyatda o`rnini, millati yoki urug`ini, mansab-lavozimini farqlashgan. Jumladan, shohlar boshidagi toji bilan hukmdorlik mavqeida ekanligi bilinsa, millatlarning do`ppisi yoki qalpog`iga qarab o`zbekmi, qozoqmi, qirg`izmi, turkmanmi va hokazo qaysi millat vakili ekanligi aniqlangan.

Boqqa kirdim boqmoqqa,

Gulni uzib taqmoqqa.

Do`ppi tikib qon bo`ldim,

Daydi saydi ahmoqqa.

Bosh kiyimi – davlat ramzi bo`lganligi sababli, uni tayyorlovchilar hamisha yaxshi niyatni ko`zlashgan. Shu tayyor bo`layotgan bosh kiyimini kiyib yuruvchining doimo boshi omon bo`lishi niyat qilingan. Ayniqsa, xotin-qizlar o`z yoriga do`ppi tikar ekan, qalbidagi iliq tuyg`ularni unga naqshlar ko`magida ifodalashni ko`zlashgan. Do`ppi tikish oson ish emas. U nozik, zerikarli, toliqtiradigan ish. Shu sababdan do`ppido`z ayollar uni tikayotganda “qon bo`lganini” do`ppido`zlik qo`shiqlarida alohida ta`kidlab o`tishgani kuzatiladi.

O`zbek do`ppilarining bir necha hududiy turlari mavjud. Jumladan, Andijon, Farg`ona, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun do`ppilari bir-biridan tuzilishi, tikilishi va bezatilishi jihatidan farqlanib turadi.

Andijonda qizlar kiyishiga mo`ljallangan “oqpar” do`ppilarning foni, asosan, oq rangda, kashta nusxasining “chorgul” kompozitsiyasini qo`llab tikiladi. Ularning tepa qismi zigzak yo`li orqali to`rt tarkka ajratilib tayyorlanadi. Har bir tarkka bir xil gulg`unchalar joylashtiriladi va ba`zan gullar orasiga yozuvlar bilan bezak beriladi. Erkaklar do`ppisining tepa qismiga solingan to`rt dona bodom tasviri kichikrok hajmda, kizaklarda joylashgan yarim oy shakllarining balandligi bir xil bo`lmay, choklar ichiga to`shama (qog`oz, ip va h.k. kabi) qo`yilmasdan to`liq tabiiy to`ldirib tikilishi bilan farqlanadi.

Andijon do`ppilarining “cetora” va “injiq” nusxalari choklarining o`ta mayda va nafisligi bilan xarakterlanib, boshqa do`ppido`zlik maktablari ishidan ajralib turadi. Hozirgacha saqlanib, yanada sayqallanib kelayotgan “andijon”, “setora”, “injiq”, “qalin”, “shahrixon”, “paxtaobod” kabi nusxalarni xalq sevib kiymoqda.

Buxoro kashtachilik maktabiga xos do`ppilarning eng mashhuri zardo`zi do`ppilardir. Kashtachilik merosining durdona turlaridan biri bo`lgan zardo`zlik san`ati buxorolik hunarmand-chevar ustalar tomonidan mukammal holda saqlanib kelingan. O`ziga xos sermazmun kashta naqshlari, g`oyat nafis texnik uslublari

uzoq davrlar mobaynida sayqal topgan rang-barang kashta choklari shu san'atning tarixiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotin-qizlar kiyishiga mo'ljallangan do'ppilar, asosan, kashtado'zlikning "zardo'zi-guldo'zi", "zardo'zi-zamindo'zi" usulida tayyorlangan. Asosiga oq bo'z, sariq satin kabi paxta tolasidan tayyorlangan matolar hamda turli rangdagi baxmal ishlatilgan.

"Zardo'zi" – so'zi zar – tilla, "do'zidan" – tikmoq, ya'ni tilla ip bilan kashta tikmoq degan ma'noni bildiradi. Bunda do'ppi bezagi zar suv yugirtirilgan metall tolali ingichka zar ip va ipak tolasi qo'shib tayyorlangan xom-ashyodan tikiladi. Zardo'zi do'ppi haqida qo'shiqlarda shunday kuylanadi:

Zardo'z do'ppim bor edi,
Boshginamda soz edi.
Oshpaz qizlar dilrabo,
Yuzlarida noz edi.

Zar do'ppilar Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan. Bu hududlarda zar do'ppilar zarkalapo'sh, kundal kallapo'sh deb yuritilishi ham kuzatiladi:

Kundal kalapo'shing bor.
Bu kalapo'sh senda bor-e,
Albatta oshig'ing bor.
G'ayro-g'ayro dam-badam,
Oromijonim, qaydasan?

Yana:

Qalpoq tikdim zardo'zi,
Kiyadi yorning o'zi.
Kiysalar yorning o'zi,
Kuydirar qoshu ko'zi.

Qalpoq ham bosh kiyimi turlaridan biridir. Demak, uning zardo'zi turi ham tayyorlangan.

Qalpoqdo'zlik shu darajada rivojlanganki, alohida qalpoq bozorlari bo'lgan. Bunga ishora "Go'ro'g'li" turkumiga mansub "Ravshan" dostonida ham uchraydi.

Unda Shirvon elining podshosi Qoraxonning qizi Zulxumor kanizlari bilan qalpoq tikib bozorda sotishi motivi uchraydi.

Xalq qo`shiqlarida qalpoq obrazini ko`p uchratish mumkin:

Suv kelar tosh ustiga,
Qalpog`ing qosh ustida,
Men yorimni sog`insam,
Yig`layman osh ustida.

Yana:

Ko`chalarindan o`tay,
Xiyol-xiyol yo`l solib.
Qalpog`ingni man tikay,
Chin xayoldan gul solib.

Buxoroda qadimdan erkaklar do`ppisi – kulohlar keng iste`molda bo`lgan. Ko`rinishi to`rt tomonli, baland, gumbaz shaklida, kashta foni, asosan, oq ipak bilan, ba`zan tepa va kizagiga arab yozuvlari tikilib bezatilgan. Bunday bosh kiyimlar qo`l kashtasining “tagdo`zi” usulida, “iroqi” chokida ipak iplar bilan tikib tayyorlangan. Do`ppining bu turi xalq qo`shiqlarida “tayitog`i” nomi bilan ham tilga olinishi kuzatiladi:

Tayitog`i do`ppido`zlar,
Hey qaydasiz, qorako`zlar.
Bir ballisin ayting sizlar,
Shu erdan Oyxon o`tdimi?

Qashqadaryoning Shahrisabz va Kitob tumanlarida juda qadimdan “iroqi” nusxa do`ppilar tayyorlanib kelingan. Bu do`ppilar o`ziga xos tayyorlanish texnikasiga ega bo`lib, yarim konussimon shaklda, kizagining chetiga maxsus jiyak tikib bezak beriladi.

I roqi do`ppi tikmanglar,
Iroqqa ketar yigitlar.
Bodom do`ppi tikinglar,

Bog`da yursin yigitlar.⁶⁷.

Qo`shiqning birinchi misrasidagi iroqi so`zi kashta turini, ikkinchi qatorda yiroqlikni (Iroq mamlakatini) anglatmoqda. Magik tafakkur ta`siri shu darajada kuchliki, hosildorlik kulti ob`ektlaridan biri bo`lgan bodomning o`zigina emas, hatto do`ppidagi ramziy tasviri ham magiyaning o`xshashlik qonuniga ko`ra yigitlarni o`z yurtlarida saqlab qola oladi.

Iroqi do`ppilarni Shahrisabz va Kitobda “qalpoq”, Toshkentda esa “gilando`ppi” deb ham ataydilar. Do`ppilar “kanva”, “bo`ronboy” deb nomlangan to`r yoki bo`z matoga “tagdo`zi” usulida “iroqi” qo`l chokida ipak va paxta iplar bilan kashta tikiladi. Tagdo`zi do`ppilar xalq qo`shiqklarida shunday ta`riflanishi kuzatiladi:

Qivladan bir oy tug`ibdi,
Jumla banda qallashar.
Mening sevgan yorimga,
Taglovus do`ppi yarashar.
Taglovus do`ppi sarvari,
Kokil qo`yib suysam sizni

Qashqadaryoda “iroqi” do`ppilardan tashqari “piltado`zi” yoki “to`ldirma” deb nomlangan do`ppilar ham keng iste`molda bo`lgan. Do`ppilarni tayyorlashda “piltado`zi” usuli qo`llanilib, piltalarga, asosan, qog`oz ishlatilgan. Do`ppi piltalari bo`ylab qo`l kashta chokining “tekis” va “ilmoq” usullarida rang-barang ipak va paxta iplar bilan kashta tikilgan. Do`ppilarning ko`rinishi dumaloq, tepasi konussimon, yassi bo`lib, kizagining chetiga “yo`rma” usulida tayyorlangan maxsus jiyaklar qadalgan. Do`ppi jiyagining birlashgan joyiga rangli ipakdan tayyorlangan popuk qadab bezatilgan.

XIX asrning o`rtalariga kelib ayollar kiyishiga mo`ljallangan to`rtburchak shakldagi, uchburchak qatlanadigan “iroqi” do`ppilar ham keng iste`molga kirgan.

⁶⁷ Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ қўшиқлари. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.65.

Shuning uchun xalq qo`shiqlarida ular e`tibor bilan kuylanganiga guvoh bo`lish mumkin:

Qo`y haydadim togva,
Sarkam qamaldi zovga
Shunday kelin ul tug`sa
Iroqi qalpoq bir sovg`a.

Qoraqalpoq do`ppilari, asosan, gumbazsimon shaklda bo`lib, tepa qismi to`rt bo`lakda, mayda qaviqlar orqali birlashtirilib tayyorlanadi. Do`ppilar astariga paxta tolasidan tayyorlangan mato elimlanadi. Kizagiga jiyak tikilib, ipak iplardan tayyorlangan popuk qadab bezatiladi. Popuklar erkaklar do`ppisiga bir dona, qizlar do`ppisiga bir necha dona qadaladi. O`smir yigit-qizlar ko`proq ko`k, yashil rangli duxobadan tayyorlangan do`ppilarni kiyishsa, keksa chollar, yosh bolalar esa qoraqalpoq milliy kashtasining mayda, nozik o`ziga xos nashqlar kompozitsiyasini tashkil etuvchi hamda kanvasiz rangli, yarim iroqi kashta usulida tayyorlangan do`ppilarni yaxshi ko`rib kiyishadi.

Qoraqalpoq do`ppilari, asosan, mahalliy dastgohlarda to`qilgan matolar hamda fabrika matolaridan tayyorlanadi. Bunday do`ppilar “toqima taqya” yoki duxobadan tayyorlangani “maqpal taqya” deb yuritiladi. Rombsimon hamda “qo`chqorshoxi” deb ataluvchi kashta naqshlari tikilgan do`ppilar esa “kozba taqya” deb ataladi.

Namangan do`ppilari orasida Chust do`ppilari mashhurdir. Namanganda XIX asrning boshlariga kelib, asosan, “Chust” do`ppilari udum bo`lgan. Bunday do`ppilarning shakli to`rtburchak, tepasi to`rt tomonli, uchburchaksimon qatlanadigan, yassi, texnikasi “piltado`zi”, qog`oz bilan piltalangan. Kashtasi ko`proq oq ipak bilan tikilib, gulg`unchalari “ko`z”lariga gulobi, sariq, to`q qizil, to`q yashil, siyoh ranglar tanlanadi. Kichik yoshdagi bolalarning do`ppilariga ko`proq rangli ipaklar ishlatiladi.

“Chust” do`ppilari to`rt karjli bo`lib, karj chiziqlari bo`rtib turadi. Avrasiga qora, to`q ko`k hamda moshrang satin (las) matolar ishlatiladi. Tepa qismining har bir karjiga bir dona qalampir nusxasi tikiladi. Hozirgi kungacha do`ppido`z

chevarlar tomonidan “chust” do`ppilarining ko`plab yangi nusxalari yaratilib, yanada sayqal topmoqda. Chust do`ppilari ham o`z yaratuvchilarining didi, mehri va mahorati natijasida xaqiqiy san`at darajasiga etgan. Do`ppilarning “zira” nusxasini andijonliklar sevib kiyishsa, namanganliklar ko`proq “injiq” deb nom olgan do`ppilarni yaxshi ko`radilar. Chust do`ppilarini nafaqat Respublikamizning barcha viloyatlarida, balki qo`shni Tojikiston, Qozog`iston, Turkmaniston kabi davlatlarda ham sevib kiyishadi.

Samarqand do`ppilari ko`rinishi to`rt tomonli, tepasi baland, gumbazsimon, kizagi keng, kizagining chetiga enli to`q rangli matodan jiyak qadalgan bo`ladi. Bunday do`ppilarni Samarqandda erkaklar kiyishgan. Bu kabi do`ppilar qora satin, ipak matoga tepa va kizagiga ko`pincha qo`l kashta chokining “ko`ptirma” usulida kashta tikib, tayyorlangan. Kashtalar, asosan, rangli ipak iplar bilan tikilib, tepa qismining to`rt tarafi va kizagiga bir xil mutanosib naqsh – gul tanlangan.

Samarqandda yana urgut do`ppilari har davrda o`ziga xos nafisligi, mukammalligi bilan ahamiyat kasb etib kelgan. Ko`rinishi dumaloq, kizagi baland bunday do`ppilar “piltado`zi” texnikasida qora satindan tayyorlanib, “kanda xayol”, “yo`rma” qo`l chokida rangli ipak yoki paxta iplar bilan kashta tikiladi. Bunday do`ppilarning kizagiga popuk qadalib bezatiladi. Do`ppi kashtasi uchun gul va geometrik naqshlar tanlanadi. Yosh bolalar uchun mo`ljallangan xuddi shunday do`ppilarning gullari orasiga yaltiroq metall “bargak”lar va munchoqlar qo`shib bezatiladi.

Surxondaryo do`ppido`zlik maktabida milliy kashtachilik amaliy bezak san`atining o`ziga xos jozibador xalqchil uslublari saqlanib qolinganki, bunday do`ppilarni xalq sevib, boshidan tushirmay kelmoqda. Ayniqsa, Boysun, Dashnobod do`ppilariga razm solinsa, ulardagi mukammal rang-barang naqshlar jilosiga qarab xalq qalbining jo`shqinligi, tabiatga yaqin, hamnafas ekanligini his qilish mukmkin.

“To`ldirma”, “pulakcha”, “tangacha” yoki “lolagul” deb ataluvchi do`ppilarni yigitlar va erkaklar kiyadilar. Bunday do`ppilar, asosan, patli baxmaldan tayyorlanganligi sabab, “patdo`zi” deb ham nom olgan. Umuman

aytganda, xalq qo`shiqlarida do`ppilar tikilish turidan tashqari qanday matolardan tayyorlanishiga ko`ra ham sifatlangani kuzatiladi. Quyidagi qo`shiqda shoyi do`ppilar ta`riflanadi:

Shosupa ustinnan shoning qoshinda,
Shoyi kalapo`shi bordir boshinda,
Yoshini so`rasam o`n to`rt yoshinda,
O`n olti yoshli qizdanam iboli.

Xotin-qizlar kiyishiga mo`ljallangan “munchoq” yoki “shabanok” deb nomlanuvchi do`ppilar esa shaklan dumaloq, ularga mayda munchoqlar tizib gul tikib tayyorlanadi. Do`ppilarining kizagiga “yo`rmado`zi” usulida tayyorlangan jiyak qadab bezatiladi. Erkak va ayollar do`ppilarining jiyaklari gul nusxalariga qarab farqlanadi. Do`ppiga jiyak tikib bo`lingach, jiyakning tutashgan joyiga turli rangdagi ipaklardan popukcha qadab bezatiladi.

Toshkentda erkaklar kiyishiga mo`ljallangan do`ppilar, asosan, ko`k, qora, to`q yashil va gunafsha taqir duxobadan karjli, tepasi uchburchaksimon taxlanadigan hamda karjsiz, tepasi dumaloq ko`rinishda tayyorlanadi. Duxoba, ya`ni baxmal do`ppilar mashhur bo`lganidan qo`shiqlarda ham obrazlantirilganini kuzatish mumkin. Jumladan:

Yuqoridan kelishingdan aylanay,
Mangzil bo`lib turishingdan aylanay.
Baxmal kalapo`shni gardona qo`yib,
Qaqqos urib kulishingdan aylanay.

XIX asr o`rtalariga kelib, Toshkentda qizlar kiyishiga mo`ljallangan “Bashorat” do`ppisi yaratildi. Bunday do`ppilar to`rt karji, kizaklariga rangli ipak ip bilan kashta tikilib, sidirg`a duxobadan tayyorlanadi. Xuddi shunday ko`k yoki to`q binafsha rangli taqir duxobaga do`ppining to`rt karji va kizagiga munchoq bilan gul tikiladi. Gullar foniga oq qalinroq qog`oz qo`yib tayyorlangan do`ppilar juda nafis ko`rinishga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Toshkentda 1940 yillardan qizlar uchun mo`ljallangan “iroqinusxa” do`ppilar tayyorlana boshlangan. Toshkent “iroqi” do`ppilari Shahrisabz va Kitob

“iroqi” do`ppilaridan farqli o`laroq, qizlar kiyishiga mo`ljallanib, tepasi yassi, to`rt karjli ko`rinishda tayyorlanadi.

Farg`ona do`ppichiligida “chust” do`ppilaridan keyin, ularga o`xshatma qilib Marg`ilon do`ppilari yaratildi. Do`ppining tepa qismi to`rt karjga ajratilib, har karjga bir dona qalampir nusxa tikilib, asosan, qora rangdagi satin va ipak matolardan tayyorlanadi. Marg`ilon do`ppilarining qalampir nusxasi Chust do`ppisinikiga nisbatan ingichkaroq va kashta tikish usuli bilan farq qiladi. Do`ppilarning gullari oq ipak bilan tikilib, gul naqshlari bo`rtib turadi. Bunday ko`rinishni hosil qilish uchun naqsh chizig`i bo`ylab chok ostidan yo`g`onroq xom ipak (to`shama) to`shalib tikiladi. Nanga chidamli qog`oz yoki matodan ingichka tasma qirqilib, tasma kashta naqshi ostiga joylanadi. Do`ppilar “piltado`zi” usulida tayyorlanib, kizagiga qora paxta va ipak ipdan tayyorlangan “chalma” jiyaklar tikiladi.

Erkaklar, yosh bolalar va xotin-qizlar kiyishiga mo`ljallangan Qo`qon do`ppilari ham o`ziga xos tayyorlanish usuli bilan ajralib turadi. Qo`qon do`ppilariga, asosan, qora va yashil rangdagi satin mato ishlatiladi. Kizaging chetiga qora rangli ipak yoki paxta ipdan tayyorlangan “chalma” jiyak qadaladi. Do`ppilar “piltado`zi” usulida tayrlanib, tepasi unchalik baland bo`lmagan to`rt tomonli, qo`l kashta chokining “xomdo`zi”, “chinda xayol”, “ilmoq” turlari qo`llaniladi. Bunday do`ppi tikish usullari xalq qo`shiqlarida ham ta`kidlab o`tilganiga guvoh bo`lish mumkin:

Ko`chalaringdan o`tay,
Xiyol-xiyol yo`l solib.
Qalpog`ingni man tikay,
Chin xayoldan gul solib.

Do`ppilarga “chorgul” kompozitsiyasida, kashta nusxalarining “qalampir”, “bodom” turlari tikiladi. Kizagiga tepasiga joylashgan kashta nusxasiga hamohang ravishda “mehrob”, “arka” yoki sayqallangan gul barglari tanlanadi.

Xorazmda do`ppilarni “takya”, “toki”, “teyxa” deb ataydilar. Xorazm uslubida tayyorlanadigan do`ppilarning tepasi yassi bo`lib, duxoba, shoyi va zarbof

matolardan tayyorlanadi. Xorazm do`ppilarining “zartakya”, “kozma takya”, “papakli takya” (popukli), “monatli takya” (tangali) kabi nomlar bilan mashhur bo`lgan turlari mavjud. Ularning shakli, asosan, dumaloq; ba`zilari qog`oz yoki paxtadan pitalab tayyorlangan bo`lsa, ba`zilariga qalin qog`oz to`shama qo`yib tayyorlangan. Xorazm do`ppilari, asosan, chetdan keltiriladigan “farangi”, “parcha” kabi gazmollardan tayyorlangan. Astariga mahalliy paxta mato ishlatilgan. Kizagiga ipakdan tayyorlangan chalma jiyak tutilgan. Jiyakning birlashgan joyiga popuk qadab bezatilgan. Popuklar jiyakning eniga, do`ppilarning xiliga qarab uzun va kalta qilib qadalgan. Xorazm takyalari boshqa viloyatlarning do`ppilaridan tayyorlanish usuli jihatidan ajralib turadi. Ular ko`pincha turli zargarlik taqinchoq, bezak buyumlari, turli tabiiy zumrad, yoqut, feruza, aqiq, marvarid kabi toshlar qadab bezatiladi. Naqshlar bilan ishlov berilgan nafis manglaydizgilar, tumor uchun g`ilof va boshqa xil zargarlik bezak buyumlari shular jumlasidandir.

Tarixiy manbalar Xorazm teyxalarining juda qadimiy bosh kiyim ekanligini ko`rsatadi.

Xalq orasida biror-bir ishga kirishishdan oldin uning rejasini obdon o`ylab olish “Do`ppini erga qo`yib o`ylash” iborasi bilan yuritiladi. Quyida shu ruhiy vaziyatga do`ppi obrazini qo`llash orqali ishora qilinayotganiga guvoh bo`lish mumkin:

Ariq bo`yini o`ydim,

Do`ppini erga qo`ydim.

Sen qo`ymasang men qo`ydim.

Oxir jonimdan to`ydim.

Ba`zi ayollar do`ppisiga rayhon, jambil kabi iforli gullardan qistirib yurishni xush ko`radilar. Quyidagi qo`shiqda shu real holatga ishora bor:

Tangacharning otizida bug`doy pishdi,

Har kuni sovuraman xirmanimni.

Kalapo`shning tagida gul qistiring,

Siz quritib borasiz darmonimni.

Ayrim kishilar do`ppisini oliftalarcha, qiyshaytirib kiyib oladi. Oliftalikdan darak beruvchi bu holatning qo`shiqlarda tasvir etilganini kuzatish mumkin:

Kalapo`sh qo`yganingga man tasadduq,
Bayozu gardaning jonimga ursin.
Qiqirlab kulganingga dushman o`lsin,
Sani tuqqan onang maqsadga etsin.

Salla ham bosh kiyimlaridan biri. Sallani, asosan, o`tmishda yosh-u qari erkaklar o`rashgan. Hozir salla o`rash ancha iste'moldan chiqqan. Shuning uchun quyidagi qo`shiqda uni inkor etish mazmuni ustuvorlik qilmoqda:

Yorim salla o`raydi,
Salladan do`ppi yaxshi.
Yorim bachcha o`ynaydi,
Bachchadan o`zim yaxshi.

Telpak ham bosh kiyimlaridan biri. U issiq bosh kiyimlari sirasiga kiradi. Tulki terisidan tikilgan telpaklar issiqligi va yengilligi bilan qimmatli bo`lgan. Ana shu sabab quyidagi qo`shiqda tulki telpagi alohida e'tibor bilan kuylanmoqda:

Bachasan, tobingdasan,
Chiqma baland rosh ustiga.
Tulku telpakni qo`yib,
O`tir qalam qosh ustiga.

Xulosa qilib aytganda, xalq qo`shiqlarida bir qator bosh kiyimlarining nomini uchratish mumkin. Qo`shiqlarda nafaqat ularning nomiga, balki tikilish usuliga, matosiga ko`ra turlanishiga ham ishora qilingani kuzatiladi. Xalq qo`shiqlarida uchraydigan bosh kiyimlari bilan bog`liq obrazlar an'anaviyligi, ramziy obraz darajasiga ko`tarilganligi, turli ma'nolarda talqin etilishi bilan alohida e'tiborni tortadi.

III.2. Tan kiyimlarining qo`shiqlardagi badiiy talqini

To`n – o`zbek erkaklarining qadimiy va an`anaviy milliy liboslaridan biri. Lekin ayollar to`ni ham bor. Erkaklar va ayollar to`ni bir-biridan tikilish uslubi jihatidan farqlanadi. Shu farq tufayli xalq qo`shiqlarida to`nning kimga (er yo ayol kishiga) tegishli ekanligi alohida qayd etilganligi kuzatiladi:

Qiz to`niga atirni
Sepdingizmi, yor-yor,
Alvon olib ro`pokcha
Tikdingizmi, yor-yor.

Milliy marosimlarimizda erkaklar to`n kiyishi o`ziga xos taomilga aylangan. Yana erkaklarning eng baxtli, omadli onlarida ularning elkasiga yangi to`n yopish, to`n kiydirish an`ana tusini olgan. O`g`il bolalarni xatna qilganda, yigitlar uylanganda, bolalikdan yigitlikka, yigitlikdan erlikka o`tayotganligi bilan qutlash maqsadida, albatta, yangi to`n kiydiriladi. To`n kiyib, bel bog`lash milliylikimiz alomatlaridan biri hisoblanadi.

Qadim rivoyatlarda kelinning kuyovga atab to`n bichishi va tikishi payg`ambarimizning qizlari Xadicha onamizdan meros bo`lib qolganligi, tikuvchi ayollar uni o`z pirlari deb bilganliklari aytiladi. Shu rivoyat syujeti nikoh to`yi bilan bog`liq an`anaviy “yor-yor” qo`shiqlari mazmunida ham aks etgani kuzatiladi:

Payg`ambarning qizlari
Hadichadir, yor-yor.
O`n qo`lida qaychisi,
To`n bichadi, yor-yor.
Uning bichgan to`nlari
Gulgunmidi yor-yor,
Bizning kuyov kiygani
O`shamidi, yor-yor.

Xalq qo`shiqlarida lirik qahramonning jinsini, yoshini, oilaviy ahvolini: bo`ydoq yoki oilali ekanligini ularda tasvirlangan liboslar obrazi orqali ham bilib olish mumkin. Masalan, atlas, shoyi, adras ko`ylak xotin-qizlar, beqasam to`n erkaklar libosi sifatida qo`shiq mazmunining ularga tegishli ekanligini anglatib turadi:

Beqasam to`nlar kiyib,
Muncha meni kuydirasiz.
Har zamonda bir qarab,
Voh, beajal o`ldirasiz.

Xalq maishiy turmushida beqasam to`n kuyovlarga xos liboslardan biridir. Qashqadaryo, Surxondaryo kuyovlari ko`pincha beqasam va olacha to`nlar kiyadi. Yuqoridagi qo`shiqda beajal o`ldirish tushunchasi ko`z magiyasi bilan bog`liq bo`lsa, kuydirish beqasamning magik kuchi, ya`ni u uyg`otgan ruhiy hissiyotlar, tasavvurlar tufaylidir.

To`y marosimlarida bel bog`lab xizmat qilganlarni to`y egalari e`tiborsiz qoldirishmagan. Ularga turli qimmatbaho buyumlar yoki to`n tortiq qilish orqali, xizmatlari e`zozlangan. Bu haqda xalq qo`shiqlarida shunday deyiladi:

Hay-hay o`lan, jon o`lan,
O`lanchiman, yor-yor,
O`lan aytib zarin to`n,
Kiyuvchiman, yor-yor.

Yoki:

Nimcha mayiz sakkiz pul,
Olsang netar, hoy o`lan,
O`lanchiga shohi to`n,
Solsang ketar, hoy o`lan

Xalq lirikasida ayollar ro`moli va erlar belbog`i tarixiy va hayotiy asoslariga ko`ra jinslarni farqlab, poetik ramzlar darajasiga ko`tarilgan. Xususan, ro`mol xotin-qizlar, belbog` erlar ramzi bo`lib keladi. Shu sababli xalqda betayin,

yengil-yelpi, ayol qiliqli yigitlarga nisbatan “belida belbog`i yo`q” iborasini ishlatadilar:

Men-ku, men va`damda turdim,
Sochda sochbog`im bilan.
Sen-ku, sen va`dasi yolg`on,
Belda belbog`ing bilan.⁶⁸

Belbog` detalining keyinchalik ma`nosi kengayib, boylik, davlat ma`nosini ham anglatishi mumkin bo`lgan. Chunki belbog`iga pul tugib yurish odati bir vaqtlar o`zbeklarda juda rivojlangan:

Daryolarning naryog`ida qo`sh haydagan,
Belida belbog`i yo`q, qiz saylagan...

Bu misoldagi belbog` boylik yoki yigitning ayolmijozligi ifodasi ham bo`lishi mumkin. Bu tinglovchining mushohadasiga bog`liq.

O`zbek belbog`lari amaliy, marosimiy, magik funksiyalarga ega. Erlar va ayollarning aza marosimlari, to`ylarda bel bog`lashlari ritual ahamiyat kasb etadi. To`y egalari va ularning yaqin qarindoshlarini bildirib turadi.

Xotinlar erlari, qizlar qalliqllari uchun turli inonch va irimlar bilan belbog` tikkanlarki, bu belbog`ning magik vazifasini belgilaydi. Qo`shiqqlarimizning etuk bilimdoni Muzayyana Alaviya qizlarning o`z sevgani, ayollarning erlariga belbog` tikib berish odati o`zbeklarda juda qadim zamonlardan rivojlanganini aytadi.⁶⁹

Aka oting uch yashar,
O`rama belbog` yarashar.
Sizdek barno yigitga,
Bizdek qalliq yarashar.

Qo`shiqning siyrat ma`nosida, aka senga o`rama belbog` yarashar ekan, shundoq belbog` tikib beray, ya`ni belbog`ning magik kuchi bilan seni o`zimga maftun qilay, suyumli yoring bo`lay degan istak bor. Chunki kontagioz (muloqot)

⁶⁸ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Ўз Фа нашриёти, 1959. – Б.242.

⁶⁹ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Ўз Фа нашриёти, 1959. – Б.19-21.

magiyasiga ko`ra qiz tikkan belbog`ning yigitni quchib turishi, qizning o`zi quchishi bilan barobardir.

Belbog` nomining boshqa ma`nodoshlari ham bor. Buxoroda belbog`ni “ro`pokcha”, Surxondaryo va Qashqadaryoda “belqars”, Farg`onada “chorsi” deyishadi. E`tiborli jihati shundaki, qo`shiqar xalq tilida yaratilgani sabab ularda bu atamalarni uchratish mumkin:

Gulobi ro`pokcha tikdim,

Xipcha belli yor uchun.

Ro`molimga qaramaydi,

Uyida ro`moli bor uchun.

Yoki:

Yor-yor aytib boramiz

Uyingizga, yor-yor,

Shohi chorsi bog`lating,

Belingizga, yor-yor.

Kiyim predmetlarning poetik obrazga aylanishida qalb kechinmalaridan tashqari qo`shiqqa xos kuy, vazn, qofiya, poetik parallelizmlarning rolini inkor etib bo`lmaydi, albatta.

Magiyani turli harakatlar, predmetlar va ularga yuklatilgan magik vazifasiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Qarshi jinsda mayl yoki maylsizlik uyg`otishga qaratilgan harakatlar, predmetlar juda ko`p bo`lganligi uchun jahon xalqlari tarixida sevgi magiyasi juda rivojlangan va shu kungacha yashab kelmoqda. Sevgi magiyasining maqsadi, asosan ikkita: qarshi jinsni o`ziga maftun qilish yoki o`zidan bezdirish.

Xalq lirikasida liboslar obrazi biror ochiq yoki siyrat ma`nosi bilan ko`pincha sevgi, oila, farzand, hosildorlik g`oyalari, maishiy turmush bilan bog`lanadi:

Jimjima daryo ko`ylaging,

Menga qarab o`ynagin.

Men zehningga yoqmasam,

Erga qarab o`ynagin.

Daryo hosildorlik kultraning asosiy ob'ektlaridan biridir. Ko`ylakning daryoga o`xshatilishi bejiz emas. U lirik qahramon istaklarini siyrat ma'noda farovon turmush, farzand g`oyalari bilan bog`laydi. Bu haqda hatto afsonalar ham aytilgan. Aytishlaricha, bir xon xotining o`z ko`ylaklaridan hech ko`ngli to`lmabdi. Shunda xon barcha tikuvchilarga dunyoda yo`q ajoyib bir mato topib kelmasalar, barchangni o`ldiraman, deb amr qilibdi. Yosh bir tikuvchi daryo bo`yiga kelib, g`amga botibdi. Tunda daryo salqinidan sovqotib olov yoqibdi. Tonga yaqin olov, osmondagi oy-yulduzlarning suvdagi jilvasiga e'tibor berib, o`shanga o`xshash mato to`qibdi. Bu mato xon xotiniga juda ma'qul bo`lib, o`shandan buyon **xonatlas** deyilar ekan”.

Xalq afsonasiga ko`ra, xonatlas olov, osmon, daryo bilan bog`langan. Ikkinchidan, xonatlasning chiroyli gullari, haqiqatan ham, to`lqinlarning jimirlashi, olov yolqinlariga o`xshaydi.

Atlas ko`ylak yengi tor,

Yeng ichida xati bor.

Xatni olib o`qisam,

Payg`ambarlar oti bor.

Ko`ylak yengini tor qilib tikish ham magik va amaliy maqsadga qaratilgan. Chunki tor yeng ayol bilagini yanada suluv ko`rsatadi, oshiqni hayajonga soladi. O`tmishda kiyimning yeng yoki yoqa qismlariga magik himoya duolari yozilgan tumorlar osib yurilgan. Yuqoridagi qo`shiqda aynan shu holatga ishorani tuyish mumkin.

Sevgi magiyasiga inonch tufayli qo`shiqlarda biror ko`ylak kiyishni istamaslik, qarshi jins vakiliga nisbatan maylsizlikni bildiradi:

Atlas ko`ylak kiymayman,

Etagini loy qilib.

Qimorbozga tegmayman,

Yuragimni qon qilib.

Yoki:

Atlas ko`ylak kiymayman,
Chok-chokidan ketadi.
Kundoshlikka tegmayman,
Kunda tashlab ketadi.⁷⁰

Yog`ingarchilik, loygarchilikda har qanday ko`ylakning etagiga tabiiy ravishda loy tegishi mumkin. Ammo xalq qo`shig`ida etakning loy bo`lishi ramziy ma`noda yorga bo`lgan maylsizlikni ifodalab kelayotir.

Atlas ko`ylaging bo`lsa,
Kiyganda ko`ngling to`lsa.
Yaxshi ko`rgan yigiting,
Yoningda qo`shning bo`lsa.⁷¹

Bu qo`shiqda atlas ko`ylak ham oila ramzini, ham lirik qahramonning suyuqli yor bilan yashash mayli, istagi borligini anglatishga xizmat qilmoqda.

Bir yorim bor aravakash,
Obbermadi xonatlas.
Obbermasa xonatlas,
Yana bitta aravakash.⁷²

Kimki bu qo`shiqning tashqari ma`nosiga qarab, undagi lirik qahramonni xonatlas olib berganga ergashib ketaveradigan yengiltak ayol ekan, deb tushunsa katta xato qiladi.

Qo`shiq tili poetik, ko`chma ma`nolarga tayanadigan hodisadir. Shu sababli lirik qahramon yordan biroz ko`ngli qolib, orqavorotdan noz qilib, yengil o`pkalamoqda. Qo`shiqning yengil yumoristik xarakteri ham shu ma`noni anglatib turibdi.

Atlas xuddi do`ppi kabi o`zbek xalqi, millatining ramzidir. Qo`shiqlar turli qalb kechinmalari, sevgi mayllarini ifodalaydi:

Yor, nimalar devdim sizga,
Atlaslar oling-o bizga.

⁷⁰ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Ўз Фа нашриёти, 1959. – Б.245.

⁷¹ Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. Тўпловчи Х.Раззоков. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б.74.

⁷² Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Ўз Фа нашриёти, 1959. – Б.225.

Ho, atlaslarni kiyvolib-o,
Hilpillab kelasiz bizga.⁷³

Qo`shiqda atlasning xususiyati (hilpillashi) qahramonga ko`chirilgan va u yorning nozu karashmalarini ifodalashga xizmat qilgan.

Atlas ko`ylak yarashadi,
Kelinchakka, yor-yor,
Kelin atlas so`raganda
Qochmang aka, yor-yor.

O`zbek milliy matolaridan hisoblangan atlas, adras, alocha kabi matolar, albatta, kelinchaklarning sepida bo`lishi kerak bo`lgan. Shundan kelib chiqqan holda kelinchaklarga qaratilgan (yor-yor, kelinsalomlar, kelin o`tirsin) xalq qo`shiqlarida bu matolar nomi ko`p tilga olinishi kuzatiladi.

Ko`ylagimning ichida
Ajir-bujir guli bor.
Chol kishiga tegmayman,
Ko`kragida juni bor.⁷⁴

Qo`shiqda ko`ylak ichining tilga olinishiga sabab shuki, u lirik qahramonning men tanamni chol kishiga ko`rsatmayman, degan siyrat ma`noni ifodalashga xizmat qilgan.

Qo`shiqlarning yaratilish ildizi qadimgi davrlarga borib taqalsa-da, lekin ular ham zamonlar osha o`zagara borgan. Qo`shiqlar tarkibida obrazlantirilayotgan liboslar zamonga qarab urfga aylanayotgan matolardan tikilganganligini xalq unutmaydi:

Jersi ko`ylak egnida
Guli mayda, yor-yor,
Tanimaysiz kuyovni,
Uyi qayda, yor-yor.

⁷³ Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ кўшиқлари. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.103.

⁷⁴ Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. Тўпловчи Ҳ.Раззоқов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б.74.

Jersi – yapon matosi. O`ngan asrning ikkinchi yarmida jersidan kiyim kiyish urfga aylangan. Qolaversa, uning narxi ham baland bo`lgan. Agar yuqoridagi “yor-yor” matniga diqqat qaratsak, unda notanish kuyov begona yurt matosiga bejizga tenglashtirilmayotganini anglash mumkin. Yana undagi jersi ko`ylak obrazi qo`shiqning keyingi davrlarda yaratilganligidan dalolat berib turibdi.

Demak, kiyimlarni matosiga qarab nomlash holati ham kuzatiladi. Bunda kiyimning qanday gazlamadan tikilganligi asos qilib olinadi. Masalan, kimxob, atlas, las, beqasam, shoyi va boshqalar kiyim-kechak uchun sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelishi kuzatiladi:

Oq shoyidan ko`ylagim,

Zarga botdi bilagim.

Zamonaning dastidan

G`amga botdi yuragim.⁷⁵

Yoki:

Adras ko`ylak tizingdan,

Enib keldim izingdan.

Qanday boyning qizisan,

Jovdiragan ko`zingdan.⁷⁶

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, kiyimlar tarkibida ko`rsatib o`tilgan mato turlari har ikkala qo`shiqdagi lirik qahramonning qaysi tabaqa vakili ekanligini ko`rsatib beradi. Chunki o`tmishda shoyi, adras, atlas kabi matolar qimmatbaho bo`lib, ko`pincha aslzoda ayollar kiyim qilib kiyadigan mato turlari bo`lgan.

Doka ko`ylak ichinda

Tut qoyaylik, yor-yor,

Kelinchakning yo`lida

O`t yoqaylik, yor-yor.

Tarixan hosildorlik kultrlariga inonch bilan bog`liq suv, olov va o`simliklar obrazi xotin-qizlar qalb dunyosini ifodalshda juda qo`l kelgan, deb ta`kidlaydi

⁷⁵ Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – Б.35.

⁷⁶ Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – Б.193.

qo`shiqshunos A.Musaqulov. Darhaqiqat, xalqimizda tut daraxti juda qadimdan e`zozlanib kelingan. Nikoh to`yi kechasi chimildiqa kiyiladigan doka ko`ylakning ichiga tut qoqilishi, an`anaviy inonchga ko`ra, kelinchakning serfarzand va baxtli bo`lish kabi g`oyalarni ifodalaydi. O`t, olovning kelinchak yo`lida yoqilishi esa, magik inonchga ko`ra, olov oilaning homiysi ekanligini bildiradi.

Xalq tomonidan asrlar davomida kuylanib kelgan qo`shiqlarda kiyim-kechaklarning faqatgina nomi keltirilmagan, balki ularning qismlari nomi ham muayyan badiiy-estetik vazifalarda keltirilgan. Masalan:

Singlim yolg`iz, men yolg`iz,

To`ni o`ttiz, yor-yor.

Yoqalari qayrilma,

Yengi qunduz, yor-yor.⁷⁷

Jiyak, yoqa, yeng, etak kabi kiyim qismlari kiyimlarda yordamchi detallar hisoblanadi. Ular obrazlantirilishi orqali qo`shiqning jozibasi yanada oshiriladi. Quyidagi qo`shiqda tugmaning xuddi shunday obrazlantirilganini kuzatish mumkin:

O`rta tushgan singlimning

Tugmasi qator-qator.

U tugmanani yechguncha

Hulkar botib, tong otar.⁷⁸

Qo`shiq tarkibida kelgan tugma so`zi kiyim qismlaridan biri bo`lib, qadimiy turkiy so`z hisoblanadi. Uning tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, hali metall, shisha va shunga o`xshagan narsalar ixtiro etilmagan chog`da, tugma bog`ichni bog`lab tugish ma`nolarini ifodalagan va tugmoq (bog`lamoq) fe`llaridan funksiyadoshlik hosil qilgan.

Albatta, xalq ushbu detallarni ko`zdan qochirmagan holda muhabbat va sadoqat, visol tuyg`ulari ufurib turgan lirik qo`shiqlarida qo`llay olgan. Zero,

⁷⁷ Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – Б.121.

⁷⁸ Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – Б.56.

yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir xalq qo'shig'i xalqning ijtimoiy-maishiy turmush tarzidan darak berib turadi.

III.3. Qo`shilarda oyoq kiyimlari obrazi

Qadimgi ishonch-e'tiqod, urf-odat, udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yo`li xalq og`zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanishdir. Bunda kiyimlarning bir turi bo`lgan oyoq kiyimlari bilan bog`liq e'tiqodiy qarashlarning xalq qo`shiqclariga singdirilgan namunalari ham e'tibordan chetda turmaydi.

Kelinoy, Kelinoy deyishadi,

Zulfini shamol eshadi.

Iroqilaridan jiyagi

Kavish betiga tushadi.⁷⁹

Oyoq kiyimlariga nisbatan oyoqning himoyachisi sifatida qaralgan. Kovush ham oyoq kiyimlaridan biri sifatida shunday e'zozga erishgan. Og`zaki epik asarlarda uchar oyoq kiyimlari, masalan, bir manzildan ikkinchi manzilga ko`z ochib yumguncha olib borib qo`yadigan uchar etik, to`kin turmushga, baxtga erishtiruvchi tilla kovush obrazlari bevosita xalqning oyoq kiyimlariga nisbatan magik qarashlari hosilasidir deyish mumkin.

Ma'lumki, Buxoroda zardo`zlik hunari san'at darajasida taraqqiy etgan. Zardo`zlikda maxsus tayyorlangan oltin halli sim-iplardan foydalanib qalin matoga turli naqshlar tikiladi. Shuning uchun ular xalq tilida ba'zan zar kovush, ba'zan tilla kovush deb yuritilgan. Buxoroda kelinlar sepida, albatta, zar kovush bo`lishiga hozirgacha e'tibor qilinadi. Zar kovush kelinlik kiyim-kechaklaridan biri hisoblanadi.

Oyog`imda zarli kovush-qadog`li,

Tegma bola, men birovga atog`li.

⁷⁹ Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – Б.183.

Kunduz boray desam, izim so`rog`li,

Kecha boray desam, oylar qorong`i.

Qo`shiqda obrazlantirilayotgan zar kovush timsoli lirik qahramonning kelinlikka tanlanganini, u birovga atab qo`yilganini, shuning uchun endi boshqa bilan kechalari qalliq o`yini qilolmasligini anglatmoqda. Odatimizga ko`ra, ajdodlarimizning bu kabi an`analarini oyoqosti qiladiganlar, nazar-pisand qilmaydiganlar el ichida hurmatsiz bo`lib qoladi. Qo`shiqda shundan hushyor bo`lishga da`vat etish ko`zda tutilgan.

Xalq kiyim-kechak nomlariga tilla sifatlashini qo`shib “tilla kovush”, “tilla to`n” deb yuritar ekan, bunda tilla so`zi oltin metallini emas, zar ipni anglatadi:

Yorim ketadi O`shga,

Menga **tilla kovush**ga.

Tilla kovush kiymayman,

Eltib bering kundoshga.⁸⁰

Oltin va tilla so`zlari ko`magida hosil qilingan bu kabi sifatlashli obrazlar, odatda, ertaklar syujetiga g`ayrioddiylik, xayoliy uydirma, voqelikni fantastik tarzda bo`rttirish xususiyatini bag`ishlaydi. Demak, avval epik talqinda uchraydigan obrazlar bora-bora xalq she`riyatiga ham ko`chgan. Masalan, keltirilgan to`rtlikdagi tilla kovush obrazi aslida syujetida oltin kovushcha obrazi uchraydigan ertaklarni yodga soladi.

Kovushlar, odatda, charmdan tikilgan va mahsi bilan kiyilgan. Kovush bilan kiyilgan mahsi ancha paytgacha o`z ohorini yo`qotmagan. Kovush esa mahsini asragan va unga ko`ra tez eskirgan.

Boylari kiydi kovush bilan mahsini,

Hech bilmadi nomoz bilan ro`zani,

Levin⁸¹ kelib qimmat qildi g`o`zani,

Shuning uchun bug`doy yuqori bo`ldi.

⁸⁰ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: ЎЗР ФА нашриёти, 1958. – Б.241.

⁸¹ Левин – асримиз бошларида Қорақўлга келган рус бойларидан бири.

Boylar va kambag`allar hayoti tasvirlanayotgan ushbu ijtimoiy mazmundagi qo`shiqda bejizga boylar kiygan mahsi-kovush obrazi aks etgan misra qo`shiq boshlanmasi emas. Bunda kovush ichida himoyalaniy yuradigan mahsi obrazi boylarga, uning yaxshi holatda bo`lishi uchun xizmat qiluvchi kovush obrazi esa kambag`al, mehnatkash xalq timsoliga ishora qiladi.

Ayrim qo`shiqlarda tez to`zib ketmaydigan, chidamli, pishiq kovushlar maqtalgan. No`g`aycha kovushlar xalq orasida ana shunday ardoqqa erishganini, xaridorgir bo`lganini qo`shiqlar orqali ham bilib olish mumkin:

Ovushingdan deganda, ovushingdan,
Bosolmayman no`gaycha kovushingdan,
Ko`yga taqqan zakazanday jaranglaysan,
Akaginang aylansin tovushingdan.⁸²

Ushbu qo`shiqda xalqimizning go`zal va betakror, qadimiy an`analaridan biri – nikoh to`yida kelin-kuyovning oyoq bosdi udumiga ishora qilinayotir. Bunga ko`ra kelin yo kuyovdan qaysi birlari chimildiqqa kirgan paytda zudlik bilan sherigining oyog`ini bosib olsa, o`sha oilada etakchilik mavqeini qo`lga kiritgan hisoblanadi. Albatta, o`zbek oilalarida er kishi etakchiligi tan olingani uchun ko`p hollarda kelinchaklar o`zi oyoq bosishdan ko`ra bu ishni atay kuyov bola ixtiyoriga qoldirishadi.

Xalqimiz orasida shu bilan bog`liq yana bir irim borki, oyoq kiyimlari bir-birining ustiga minib qolmasligi lozim. Agar shunday bo`lsa, uning egasi er kishi bo`lsa – xotin ustiga xotin oladi, ayol kishi bo`lsa – eri ustiga xotin olib keladi, deya irim qilinadi. Shunga ko`ra oyoq kiyimini echayotganda ehtiyot va hushyor bo`lishga harakat qilinadi.

Ba`zi qo`shiqlarda yangicha va eskicha turmush tarzini qiyoslash uchun quyidagi qo`shiqda kavish-mahsining botinkaga zid qo`yilgani kuzatiladi:

Osma fonar osmayman,
Elektrlar chiqipti.

⁸² Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – Б.147.

Kavish-mahsi kiymayman,

Batinkalar chiqipti.

Qo`shiqda eski va yangi turmushga xos predmet va buyumlar o`zaro qiyoslanib, shu asosda yangicha hayotning eskicha turmushdan afzalligi ta`kidlanmoqda. Darhaqiqat, elektr chiroq osma fonarga nisbatan ravshan yonadi va yonganda badbo`y hid chiqarmaydi. Shu jihatdan undan foydalanish osma fonarga nisbatan afzaldir. Shuningdek, botinka kiyib-yechilishi jihatidan kavish-mahsiga qaraganda yengil va qulaydir. Qo`shiqda botinka – yangi, erkin hayotga qadam tashlash ramzini ifodalagan. Shu tufayli qo`shiqda bu vosita-obraz yordamida ijtimoiy hayotdagi o`zgarishlar, madaniy taraqqiyot motivlari xalq qo`shig`iga olib kirilgan.

Shunday xalq qo`shiqlari borki, ularda xalqning oilaviy-maishiy hayoti, urf-odatlarini, turli mavsumlar, so`zning sehr-jodu qudrati, tush ko`rish voqeligi bilan aloqador qarashlari o`z aksini topgan. Jumladan, quyidagi qo`shiq mazmuniga xalqning oyoq kiyimi bilan bog`liq tushlarni ta`bir qilish tushunchalari mahorat bilan singdirilganligiga guvoh bo`lish mumkin:

Samarqand soyiga tushdi kovushim,

Qachon kelar maning bulbul dovushim?

Qachon kelsa kelar maning bulbul dovushim,

Sadag`asi ketsin o`sha kovushim.

Tushda oyoq kiyimining suvga tushib oqib ketishi xosiyatli belgi bo`lib, bunday tush yiroqdan uzoq kutilgan yaqin kishining tez kunda kelib qolishiga ishora deb qaraladi. Chunki tushda suv poklik, yorug`lik alomati sanaladi.

Kosiblik, etikdo`zlik, kovushdo`zlik, mahsido`zlik xalqimizga xos hunarmandchilik turlari sifatida yuqori darajada rivoj topgan. Soha hunarmandlari hamisha tinimsiz izlanib, o`zaro tajriba almashinib, o`z mahsulotlarining qulayligi va bejirimligi jihatidan xaridorgir bo`lishi uchun intilishgan, sog`lom raqobatbardoshlik asosida ish yuritishgan. Buning natijasida oyoq kiyimlarining mashhur xillari vujudga kelganki, xalq qo`shiqlarida ularning muhabbat bilan obrazlantirilgani dalili ham buni tasdiqlay oladi:

Ko`kka chiqsam, ko`k ko`ylagim pirillar,
Soyasida no`g`ay kovush jirqillar.
O`ynayversang bilaklaring bilqillar,
Kelaver, jonima, jonim aytaman.

Ustalar kovushlarga atay g`arch qo`yib tikishgan. Bunday kovushlarni kiyib yurganda o`zidan yoqimli ovoz chiqargan. Yuqoridagi qo`shiqda uzun ko`k ko`ylak va g`arch solingan kovush kiyib olgan sarv qomatli go`zalning raqs tushish holati tariflanmoqda.

Kovushimning ostidan,
Qil o`tganday bo`ladi.
Yorni bir kun ko`rmasam,
Yil o`tganday bo`ladi.

Bu qo`shiqda osti juda nozik, bejirim, yurganda oyoqqa botib og`ritmaydigan qilib ishlangan kovush turi ta`rifi keltirilmoqda. U shunchalik nozikki, mubolag`alashtirib, bo`rttirib aytganda, ostidan qo`l o`tgani ham sezilmaydi.

Oyoq kiyimlari poshnali, tovon qismi yuqoriroq qilib ishlangan bo`lsa, kiygan kishini sarvqomat qilib ko`rsatadi. Shuning uchun azaldan xotin-qizlar poshnali etik va kovushlarga o`ch bo`lishgan. Quyidagi qo`shiqda bevosita shu holatga ishora bor:

Dugonamning kovushining o`kchasi,⁸³
Gul bo`lib ochilar yurgan ko`chasi,
Izindadir to`qqiz mahram⁸⁴ bachasi,⁸⁵
Shunda mani hayron etgan dugonam.

Quyidagi qo`shiqda tovonni tor qilib tayyorlangan etik obrazi e`tiborni tortadi. Negaki, etik har qancha zo`r bo`lmasin, uning tovonni tor bo`lsa, kiygan kishining jonini og`ritib, azob beradi:

Ko`chadan o`tib borotgan⁸⁶ bizdi yor o`xshaydi-ku,

⁸³ Пошнаси.

⁸⁴ Маҳалла.

⁸⁵ Бола.

Belida belbog`i bor – kungurador o`xshaydi-ku,
Qo`lida qo`l ro`moli – shilshilador o`xshaydi-ku,
Oyog`ida zo`r etik – poshnasi tor o`xshaydi-ku.
Kiftida bir juft qovun – bittasi xom o`xshaydi-ku,
Kissasi to`la mayiz, qo`lida jom o`xshaydi-ku.

Bu qo`shiqda beliga kungurador belbog` bog`lagan, qo`lida shilshilador qo`l ro`moli bor, oyog`iga poshnasi tor zo`r etik kiyib olgan oshiq timsoli tasvirlanmoqda. Uning bu kiyinishi oliftaligidan nishona ekanligi bildirilmoqda.

Ayrim kishilar oyoq kiyimining, xususan, etigining sifati uzoq vaqt saqlanib qolishi uchun uning poshnasiga maxsus temir moslama – na`l qoqtirishgan.

Oyog`imda qora etik – na`li yo`q,
Hammaning yori bor, menda hali yo`q.
Yori yo`q deb kamsitmanglar, yoronlar,
Onasidan u hali tug`ilgani yo`q.

Qo`shiqda na`lsiz etik obrazi yori yo`q lirik qahramon obrazi bilan tenglashtirilmoqda. Chunki etigiga na`l qoqtirib olgan odamning etigidan ko`ngli to`q bo`lgani kabi yori bor insonning ham hayotda ko`ngli to`q, butun bo`ladi.

Etik va mahsilar ko`pincha tovonidan yirtilib, ishdan chiqadi. Shuning uchun bu oyoq kiyimlarini xarid qilish uchun tanlaganda ko`pincha tovon qismining tikilishiga e`tibor qaratiladi.

Oshib keldim orqaning dovonidan,
Sovr etigim yirtildi tovonidan.
Olaman deb o`kinib yurar edim,
Quruq qoldim jovchining yomonidan.⁸⁷

Bu qo`shiqda o`zi xohlagan yorga erisha olmay, armonda qolgan lirik qahramon kechinmalari o`zi xohlagan etikni ololmagani armoni ramzida ifoda etilmoqda.

⁸⁶ Бораётган.

⁸⁷ Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – Б.141.

Xalq qo`shiqlarida oyoq kiyimi ustalari foydalanadigan ish predmetlari obraziga ham e'tibor qaratilganligini ni kuzatish mumkin:

Qassoblari bordir – taroz, teshali,
Ustalari bordir – kuchli, peshali,
Etikchisi bordir – qatim,⁸⁸eshali,
Har qaysining o`z foydakardi bordir.

Umuman aytganda, xalq qo`shiqlarida kiyim-kechaklar maishiy predmetlar sifatida maishiy turmush voqeliklarini obrazlantirish vositasi bo`lib kelishi kuzatiladi. Jumladan, navbatdagi qo`shiqda ham shu mazmuni ilg`ash mumkin:

Eshigingdan man o`taman oy bo`lib,
Etigingga yopishaman loy bo`lib,
Ikki oshiq bir ko`ylakka joy bo`lib,
Bu dunyoda yashaylik, o`lim bo`lmasin.

Qo`shiqda ikki oshiqning bir ko`ylakka joy bo`lishi ularning ahil-inoq bo`lib yashashiga ishora bo`lsa, etikka yopishgan loy bo`lishi yanada jiplashish istagida ekanliklariga ishoradir.

Xullas, xalq qo`shiqlarida xalq turmushini, axloq normalarini o`ziga xos san'at darajasida aks ettirishda oyoq kiyimlari ham obrazlantirilganligini kuzatish mumkin. Qo`shiqlarda ular orqali aks ettirilgan ramzlar xalq uchun juda katta ahamiyatga ega bo`lgan.

Uchinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Kiyimlarning bosh kiyim, ust(ki) kiyim, ich(ki) kiyim, oyoq kiyimi, shuningdek, ularga yordamchi buyumlar va kiyim qismlarining o`zbek xalq qo`shiqlarida turfa xillari va jilolari uchraydi.

2. Qalpoq, do`ppi, ro`mol va uning ipak ro`mol, doka ro`mol, rangiga ko`ra oq, sariq, qora ro`mol turlari, telpak, salla kabi bosh kiyimlar, to`n, yaktak, belbog`, ko`ylak singari ust kiyimlar, etik, kovush, mahsi, botinka, kalish singari

⁸⁸ Катим-ип.

oyoq kiyimlarning nomlari xalq qo`shiqdarida ko`p uchraydi hamda an'anaviyligi, turg'un ramziy obraz sifatida kelishi bilan e'tiborni tortadi.

3. Xalq qo`shiqdarida bosh kiyimlari osmon g`oyasi orqali hosildorlik va serfarzandlik tushunchalari bilan bog`lanadi. Bosh kiyimi – davlat ramzi sifatida keng talqin topgan va u orqali hamisha yaxshi niyat ko`zlanadi.

4. Xalq lirikasida liboslar obrazi biror ochiq yoki siyrat ma'nosi bilan ko`pincha sevgi, oila, farzand, hosildorlik g`oyalari, maishiy turmush bilan bog`lanadi.

5. Kiyim turlarining barchasi ularga nisbatan himoyachi sifatida qarash tufayli e'zozlanib tasvirlanishi kuzatiladi. Ular lirik qahramonning kechinmalari bilan bog`lab talqin etiladi.

6. Xalq qo`shiqdarida kiyim-kechaklar maishiy predmetlar sifatida maishiy turmush voqeliklarini obrazlantirish vositasi sifatida xizmat qilgan.

UMUMIY XULOSALAR

1. Xalqimiz orasida kiyim-kechaklar magiyasiga ishonch bilan bog`liq qarashlar saqlanib kelayotgani kuzatiladi. Hatto folklor asarlarida bevosita uning badiiy ifoda etilishiga guvoh bo`lish mumkin. Jumladan, o`zbek xalq qo`shiqlarida bosh, tana, oyoq kiyimlarining turlari o`ziga xos obrazlantirilib, muayyan ramziy-timsoliy ma`nolarni anglatib kelishi ko`zga tashlanadi.

2. O`zbek folklorshunosligida kiyim-kechaklar bilan bog`liq magik qarashlarning xalq asarlaridagi badiiy talqini, ularning kelib chiqish ildizlari, mazmuni va axloqiy-e`tiqodiy mohiyati bevosita xalqimizning madaniy turmush tarzi, undagi o`rni, bolalar va kattalarga libos kiydirish marosimlari bilan bog`liq ekanligi anglashiladi.

3. Liboslarda, avvalo, milliy qadriyatlarimiz aks etganligi bilan e`tiborni tortadi. Yosh avlodni qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda milliy liboslar ham muhim o`rin tutadi. “O`zbekiston madaniyati va san`ati forumi” jamg`armasi tomonidan o`tkazib kelinayotgan “Xonatlas” loyihasi, “Asrlar sadosi”, “Bolajonlar – shirintoylar”, Milliy liboslar festivallari, san`at haftaliklari, yosh dizyner va modelerlar ko`rik-tanlovlari bu boradagi ishlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, jamg`arma va hamkor tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan “Tiklanish” loyihasi mamlakatimiz hududlarining turli davrlarga xos liboslarini o`rganish, tiklash va san`at ixlosmandlari e`tiboriga havola etishga qaratilgan. Ushbu ishlar qatorida liboslar obrazining o`zbek xalq og`ziki ijodida gavdalantirilishini o`rganish ham muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

4. Kiyim – inson ma`naviyati va madaniyatining bir ko`rinishidir. Azal-azaldan liboslarimiz jahon xalqlari o`rtasida o`z mavqeiga ega bo`lgan. Kiyim-kechaklarimiz xalqimiz tarixi bilan uzviy bog`liq bo`lib, moddiy-madaniy yodgorliklar ichida xalqimizning milliy o`zligini aks ettirib turadi.

5. Inson liboslari turlariga nisbatan inson tanasining magik himoyachisi deb qaralgan. Lekin bora-bora ular haqidagi qarashlar yanada boyib, juda ko`p

ma'nolar kasb etgan va o`ziga xos taraqqiyot bosqichlarini bosib o`tib, "kiyinish madaniyati" yaralishiga asos bo`lgan.

6. Kiyinish madaniyatining shakllanishida magik qarashlar bilan bir qatorda xalqlarning boshqa qadimiy inonchlari – totemizm, shomonlik, o`zaro ijtimoiy munosabatlar ham katta ahamiyatga ega bo`lgan. Ayniqsa, qadim insonlar animizm tufayli kiyim va ruh tushunchasini bog`liq deb o`ylashgan. Shu asosda o`tgan ajdodlar ruhi uchun qavat-qavat kiyim kiyish, marosimlarda ular ruhiga sarpolar, yirtish atash an'analari shakllangan.

7. Kiyimning magik himoya qudratiga e'tiqod arxaik sidrapo`shlik marosimlari misolida, to`y va motam marosimlari udumlarida yorqin kuzatiladi. Insoniyat tarixida chaqaloqni, nikohga kirishayotganlarni, marhumlarni kiyintirish o`ziga xos udumga aylangan. Shu orqali inson mohiyati o`zgarishi ramziy aks ettiriladi. Kiyim-kechaklarning marosimiy funktsiya kasb etishi marosim ishtirokchilarining ritual liboslarida namoyon bo`ladi.

8. Liboslarning ritual-magik xususiyatlarining bora-bora estetik ahamiyati kuchayib, qo`shiqalarda kiyim-kechaklar obrazining paydo bo`lishiga asos yaratgan. O`zbek xalq qo`shiqlarida kiyimlarning bosh kiyim, ust(ki) kiyim, ich(ki) kiyim, oyoq kiyimi, shuningdek, ularga yordamchi buyumlar va kiyim qismlarining turfa xillari va jilolari uchraydi.

9. Qalpoq, do`ppi, ro`mol va uning ipak ro`mol, doka ro`mol, rangiga ko`ra oq, sariq, qora ro`mol turlari, telpak, salla kabi bosh kiyimlar, to`n, yaktak, belbog`, ko`ylak singari ust kiyimlar, etik, kovush, mahsi, botinka, kalish singari oyoq kiyimlarning obrazi xalq qo`shiqlarida eng ko`p uchrashi kuzatiladi.

10. O`zbek xalq qo`shiqlarida kiyim-kechaklar obrazi an'anaviyligi, turg`un ramziy obraz sifatida kelishi bilan e'tiborni tortadi. Ular xalq qo`shiqlarida real va ramziy ma'nolarda sevgi, oila, farzand, hosildorlik g`oyalari, maishiy turmush bilan bog`lab keltiriladi. Xususan, xalq lirikasida jinlar sevgisi, oila, farzand, do`st-dugonalar, ota-onaga mehr-muhabbat, marhumlar ruhiga oqibat tuyg`ularini aks ettirishda kiyim-kechak obrazlari alohida o`ringa ega.

11. Timsoliy kiyim-kechaklar obrazining rang vositasida farqlanib kelishi ham ko`zga tashlanadi. Ramziy poetik birikmalar ko`rinishida ifodalanib keladigan oq ko`ylak, oq doka ko`ylak, oq ro`mol, oq kamzul, oq telpak, qora chakmon, qora telpak, oq qalpoq, qora paranji, qora ko`ylak, qizil ro`mol, qizil ko`ylak, ko`k ko`ylak, yashil to`n, sariq ko`ylak, sariq ro`mol va hokazolarning aksariyati oilaviy-maishiy marosimlarga tegishli ritual liboslar ekanligi bilan diqqatni tortadi va ular insonning bir umr bosqichidan ikkinchisiga o`tishini yoki turli ruhiy vaziyatdagi holatini bildirib keladi.

12. Teran xalqchilik bilan ajralib turgan o`zbek xalq og`zaki ijodining go`yalari xalqning kundalik maishiy turmushi va ma`naviy hayoti bilan uzviy bog`langan. Ularda insonning yuksak tuyg`ulari, pok sevgisi, sadoqatlilik, do`stlik kabi fazilatlari yuksak darajada kuylanadi. Qo`shiqlar tarkibida uchraydigan do`ppi, ro`mol, ko`ylak, to`n kabi ko`plab detallar iroqi, shoyi, kimxob, atlas, bo`z kabi matolar asosida yotgan g`oyalarni izohlashning muhim vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, umumxalq tili leksik boyligining ajralmas qismini tashkil etgan kiyim-kechak nomlarining nafaqat badiiy ifodasi, balki ularning o`z atalish xususiyatlari mavjud.

13. O`zbek tilida kiyimlar xili va qismlarining nomlari juda ko`p va shu kiyim-kechak nomlari xalq tilidan qo`shiqlarga ko`chib, turli davrlardagi ijtimoiy turmush holatlarini ko`rsatib bergan. Bu nomlarning atalishi negizida turli tasavvur va tushunchalar yotadi. Xalq esa mana shu tushuncha va tasavvurlarni o`z qo`shiqlarida aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I.Normativ – huquqiy hujjatlar, siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.:O`zbekiston, 1997. – B.245.
2. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. // Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Танланган асарлар. Т.7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б.132-155.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:Маънавият, 2008. – 174 б.
4. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 40 б.

II.Darslik, o`quv qo`llanmalar, monografiya va risolalar:

5. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. Т.1. – Т.: Фан, 1968. – Б. 468.
6. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Т.: «Шарқ», 2001. – 172 б.
7. Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: Ўз ФА нашриёти, 1959. – Б.316.
8. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.
9. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 276 б.
10. Богатырев П.Г. Вопросы теории народного искусства. – М.: Искусство, 1971. – С.297-366.
11. Бойс М. Зороастрийцы: Верования и обычаи. – М.: Наука, 1987. – 302 с.
12. Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – 340 с.
13. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Т.: Фан, 2005. – 160 б.
14. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 312 б.

15. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларида “сеҳрли” рақамлар. – Т.: Фан, 1993. – 102.
16. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 48 б.
17. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари: Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2009. – 192 б.
18. Исмоилов Ҳ. Ўзбек тўйлари. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 190 б.
19. Климович Л.И. Ислам. – М.: Наука, 1965. – 335 с.
20. Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. – М.: ИПЛ, 1991. – 525 с.
21. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Т.: “Aloqachi”, 2008. – 560 б.
22. Миранова Л. Цветоведения. – Минск, 1984. – 149 б.
23. Мифология Древнего Мира /Сборник статей. – Л.: Наука, 1977. – 456 с.
24. Муродов М., Ҳакимов Н., Эргашев А. Қадриятнома. 1-китоб. – Т.: Мехнат, 2001. – Б.35-36.
25. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси тарихий асослари, бадиияти. – Т.: Фан, 1995. – 166 б.
26. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – 308 б.
27. Насриддинов Қ. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. – Т.: Фан, 1996. – 156 б.
28. Нурмонов Ф. Ўзбек фольклорида Хизр образи. – Т.: Фан, 2007. – Б.35.
29. Путилов Б.Н. Миф – обряд – песня Новой Гвинеи. Исследования по фольклору и мифологии Востока. – М.: Наука, 1980. – 384 с.
30. Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Т.: Фан, 2009. – 132 б.
31. Раҳмонова М. Миф, афсона ва талқин. – Навоий, 2015. – 102 б.
32. Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари. – Т.: Фан, 1985. – 96 б.
33. Саидов М. Озарбайжон мифик тафаккурининг қайноқлари. – Баку: Ёзувчи, 1983. – 328 б.

34. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан, 1986. – 216 б.
35. Саттор М. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993. – 222 б.
36. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 175 б.
37. Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: Маънавият, 2009. – 248 б.
38. Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. Darslik. – Т.: “Musiqqa”, 2010. – 367 б.
39. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.154-222.
40. Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари. – Т.: Шарқ, 2003. – Б.5.
41. Токарев С.А. Ранние формы религии. – М.: ИПЛ, 1990. – 576 с.
42. Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. Исследование магии и религии. 2-е изд. – М.: Политиздат, 1983. – 704 с.
43. Худойқулова Л. Сурхон воҳасида бола туғилиши ва бешик даври маросимлари фольклори // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 1-китоб. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2006. – Б. 87-94.
44. Худойқулова Л. Сурхон воҳаси совчилик кўшиқлари ва айтимлари. / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Таниқли фольклоршунос олим, профессор О.Сафаров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. 2-китоб. – Т.: Фан, 2010. – Б.155-164.
45. Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши.: Насаф, 1999. – 172 б.
46. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Т.: Фан, 2011. – 304 б.
47. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.
48. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Шарқ, 1992. – 496 б.
49. Гафуров Ғ. Удумларда халқ қалби. – Т.: “Ёш гвардия”, 1986. – 192 б.

III. Ilmiy jurnaldagi maqolalar

50. Иброҳимова М. Либосларда халқ руҳи. – Мулоқот. – Тошкент. – 2001. – № 5. – Б. 28-29.

51. Турдимов Ш. Лирик кўшиқларда рамз. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1982. – №3. – Б.16-19.
52. Турдимов Ш. Ранго-ранг дунё. – Ёшлик. – Тошкент. – 1987. – №8. – Б. 60-62.

IV. Badiiy adabiyotlar:

53. Аллаё алла. Тўплаб, нашрга тайёрловчи О.Сафаров. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 158 б.
54. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1998. – 400 б.
55. Асотирлар ва ривоятлар. – Т.: Ёш гвардия, 1990. – 128 б.
56. Афанди латифалари. Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Б.Саримсоқов, Ф.Йўлдошева. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 272 б.
57. Бойчечак. Болалар фольклори. Меҳнат кўшиқлари. Кўп томлик. Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров ва К.Очилов. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 336 б.
58. Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – 190 б.
59. Бўзлардан учган ғазал-ай. Ўзбек халқ йиғилари ва йўқловлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров, Д.Ўраева. – Бухоро: «Бухоро», 2004. – 126 б.
60. Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. Тўпловчи Ҳ.Раззоқов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 250.
61. Жанглар қиссаси. Маҳобҳората ёки Бҳарата авлодлари жангномаси / Ҳ.Йўлдошев таржимаси. 2-нашр. – Т.: Ёш гвардия, 1976. – Б.224.
62. Келиной кўшиқлари. Халқ кўшиқлари ва терминлари. Ёзиб олувчи ва нашрга тайёрловчи О.Собиров. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 240 б.

63. Ой олдида бир юлдуз. Ўзбек халқ маросими кўшиқлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи М. Жўраев. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 160 б.
64. Остонаси тиллодан. Тўй кўшиқлари / Нашрга тайёрловчилар: М.Мирзаева, А.Мусақулов. – Т.: Фан, 1992. – 112 б.
65. Оқ олма, қизил олма. Ўзбек халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 232 б.
66. Тафаккур чечаклари (Ўзбек халқ кўшиқлари). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: М.Обидова. – Т.: Фан, 1992. – 78 б.
67. Таъбирнома. Тушларнинг илмий асосланган талқини. – Т.: Халқ мероси нашриёти, 1996. – 84 б.
68. Тўй муборак, ёр-ёр. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи О.Сафаров. – Т.: Маънавият, 2000. – 160 б.
69. Ўзбек халқ мақоллари. Кўп томлик. Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусақулов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 512 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

70. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: филол. фанлари доктори...дисс. автореф. – Т., 2005. – 44 б.
71. Музаффарова С. Ўзбек халқ йиғи-йўқловларининг поэтикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. авторф. – Т., 2003. – 24 б.
72. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадиияти: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Т., 1995. – 41 б.
73. Нурмонов Ф.И. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Т., 2007. – 23 б.
74. Раҳмонов Т.Л. Қадимги мифлар ўзбек фольклори эпик мотивларининг ўзаги сифатида: Филол. фанлари номз. дисс. – Т., 1997. – 130 б.
75. Ўтанова С.Ҳ. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Филол.

фанлари номз. дисс. автореф. – Т., 2007. – 26 б.

76.Ўраева Д.С. Ўзбек халқ лирик қўшиқларида параллелизмларнинг характери ва бадий-композицион вазифалари: Филол. фан. номз. ...дисс. авторф. – Т., 1993. – 20 б.

77.Ўраева Д.С. Ўзбек мотам маросими фольклорининг генезиси, жанрий таркиби ва бадиияти: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Т., 2005. – 38 б.

ҲI. Internet saytlari:

78. www.ziyouz.com

79. www.google.uz